

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA  
MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI  
OSHIRISH INSTITUTI**

**2.1**

**“JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA  
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA  
TEXNOLOGIYALARI”**

**moduli bo'yicha**

**O'QUV –USLUBIY  
MAJMUA**

**Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi  
Umumta'lim muassasalari jismoniy  
tarbiya fani o'qituvchilari**

**2024**

**Toshkent – 2024**

Modulning o‘quv –uslubiy majmuasi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan 2023-yil 29-dekabrda kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan 2023-yil 29-dekabrda tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va o‘quv dasturga muvofiq ishlab chiqilgan

### **Tuzuvchi:**

- |                |  |
|----------------|--|
| A.A. Tolametov | - Institutning “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini professori v.b.                         |
| A.Ishonkulov   | Samarqand filiali “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiyy fanlar” kafedrasini katta o‘qituvchisi |

### **Taqrizchilar:**

- |                        |   |
|------------------------|---|
| <b>A.Xaydarov</b>      | - O‘zMU “Amaliy matematika va kompyuterli tahlil ” kafedrasini, m-f.f.n., dotsent |
| <b>R.Xudoyberdiyev</b> | - “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini o‘qituvchisi                            |

O‘quv –uslubiy majmua Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasining 2024-yil 3-yanvarda o‘tkazilgan 1–sonli yig‘ilish bayoni bilan tasdiqqa tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri**

**J.A.Pulatov**

## MUNDARIJA

I.	Ishchi dastur .....	4
II.	Modulda foydalanilgan interfaol ta’lim metodlari.....	16
III.	Nazariy mashg‘ulot materiallari .....	16
IV.	Amaliy mashg‘ulotlar materiallar .....	25
V.	Sinov test savollari.....	60
VI	Glossariy .....	64
VII	Adabiyotlar ro‘yxati .....	67

## ISHCHI O‘QUV DASTURI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI



“Tasdiqlayman”  
Institut rektori  
I. Tursunaliyev  
2024-yil “3” yanvar

JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIIA  
TEXNOLOGIYALARI

moduli bo'yicha

ISHCHI O'QUV DASTURI

“Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi”  
umumiyo'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan  
jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari malaka oshirish kursi uchun

Modulning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan 2023-yil 29-dekabrda kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan 2023-yil 29-dekabrda tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va o‘quv dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.

### **Tuzuvchilar:**

- |                      |   |   |
|----------------------|---|---|
| <b>A.A.Tolametov</b> | - | Institutning “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi professori v.b.  |
| <b>A.Ishonkulov</b>  | - | Institutning Samarqand filiali “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiyy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi |

### **Taqrizchilar:**

- |                     |   |   |
|---------------------|---|---|
| <b>I.Normatov</b>   | - | O‘zMU “Axborot xavfsizligi” kafedrasi professori, m-f.f.d.  |
| <b>A.Nuriddinov</b> | - | Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va masofadan o‘qitishni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i |

Ishchi o‘quv dasturi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasining 2024-yil 3-yanvarda o‘tkazilgan 1–sonli yig‘ilish bayoni bilan tasdiqqa tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri**

**J.A.Pulatov**

## Modulning maqsadi va vazifalari

### **Modulning maqsadi:**

- Tinglovchilarni jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ularning hozirgi jamiyatda tutgan o'rni, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tuzilishi, ishlash prinsiplari, arxitekturasi haqidagi bilimlarini takomillashtirish, axborot texnologiyalarining texnik va dasturiy ta'minoti, amaliy dasturiy ta'minotlar, internet tarmog'i haqida ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

### **Modulining vazifalari:**

- tinglovchilarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularning istiqbollarini;
- axborot texnologiyalarini rivojlantirish va qo'llash to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalarini;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining texnik vositalari, kasbiy faoliyatga doir ma'lumotlarni izlash, ta'lim portallaridan foydalanish;
- ta'lim oluvchilar tomonidan sport me'yordagi bajarilishini ta'minlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish usullarini;
- internet va uning asosiy imkoniyatlarini;
- sport mashg'ulotlari jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy qilishning innovatsion usullari kabi bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishdan iborat.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiylariga qo'yiladigan talablar**

"Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

- jismoniy tarbiya va sportda axborot kommunikatsiya texnologiyalari tushunchasini
- kasbiy vazifalarni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni;
- internet va uning ahamiyatini;
- o'quv dasturining alohida mavzulari doirasida talab etiladigan va ta'lim maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan hamda ta'lim jarayonini baholash haqida bilishi kerak.

#### **Tinglovchi:**

- pedagog faoliyati natijalarini tahlil qilish uchun foydalilanadigan axborot texnologiyalarini;
- ularning didaktik funksiyalarini aniqlay olish, ularni tegishli o'quv dasturlariga kiritish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

#### **Tinglovchi:**

- jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda ta’lim oluvchi faolligini va uning natijalarini baholashga yordam beradigan ta’lim resurslari va axborot texnologiyalarini tanlay olish hamda o‘quv-me’yoriy hujjatlarda bayon etish;

- Internet resurslari, elektron pochta va qidiruv tizimlaridan foydalana olish kabi malakalariga ega bo‘lishi zarur.

### **Tinglovchi:**

- jismoniy tarbiya va sportda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;

- kasbiy vazifalarni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni;

- internet pedagogik faoliyatida foydalanish;

- malaka oshirish kursida o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalardan kasbiy faoliyatda foydalanish kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

Modul mazmuni o‘quv rejadagi “Yangi O‘zbekistonda demokratik islohotlar”, “Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning normativ-huquqiy hujjatlari”, “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”, “Maktab o‘quvchilarining morfofunksional o‘zgarishlari”, “Gimnastikani o‘qitish uslubiyati”, “Harakatli o‘yinlar o‘qitish uslubiyati” kabi o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning sport ta’limidagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar kasbiy faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va innovatsion texnologiyalari imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan qo‘srimcha tasavvur va malakaga ega bo‘ladilar.

### Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:

T/r	<b>Modul mavzulari</b>	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soatlari					<b>Mustaqil tayyorgarlik</b>	
		<b>Hammasi</b>	Auditoriya o‘quv yuklamasi					
			Jumladan					
		<b>Jami</b>	<b>Nazariy</b>	<b>Amaliy mashg’ulot</b>	<b>Ko‘chma mashg’ulot</b>			
<b>1.</b>	Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tushunchasi	<b>2</b>	2	2				
<b>2.</b>	Internet va uning imkoniyatlari	<b>2</b>	2		<b>2</b>			
<b>3.</b>	Kasbiy vazifalarni samarali amalgaga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	<b>2</b>	2		<b>2</b>			
<b>Jami:</b>		<b>6</b>	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>4</b>			

### NAZARIY TA’LIM MAZMUNI

#### **1-mavzu: Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tushunchasi**

**Reja:**

- 1.1. Axborot texnologiyalari tushunchasi
- 1.2. Jismoniy tarbiya bo‘yicha mutaxassisning pedagogik faoliyatida zamonaviy elektron sport anjomlari imkoniyatlari
- 1.3. Axborot xavfsizligi

Axborot texnologiyalari va ishlash asoslari. Jismoniy tarbiya va sport sohasida axborotlashtirish. Axborot texnologiyalari taraqqiy etishining asosiy bosqichlari va rivojlanish tendensiyasi. Zamonaviy elektron sport anjomlari. Axborot xavfsizligini ta’minlashning vositalari.

### AMALIY MASHG’ULOTLAR MAZMUNI

## **2-mavzu: Internet va uning imkoniyatlari**

### **Reja:**

- 2.1. Elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar
- 2.2. Davlat axborot resurslari va interaktiv xizmatlar
- 2.3. Onlayn tizimlar

Internet tarmog‘i tuzilishi. Internet tarmog‘ining eng ommabop xizmatlari. Elektron pochta va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish. Davlat axborot resurslari va interaktiv xizmatlar. Ta’lim portallari. Onlayn tizimlar.

## **3-mavzu: Kasbiy vazifalarni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish**

### **Reja:**

- 3.1. Kasbiy faoliyatga doir ma’lumotlarni qidirish
- 3.2. Ziyonet ta’lim portalı (fikr.uz, utube.uz, audio.ziyonet.uz, library.ziyonet.uz)

Kasbiy faoliyatga doir ma’lumotlarni qidirish. Ziyonet ta’lim portalı. fikr.uz, utube.uz, audio.ziyonet.uz, library.ziyonet.uz imkoniyatlaridan foydalanish.

## **Dasturning axborot-metodik ta’minoti**

Modulni o‘qitish jarayonida ishlab chiqilgan o‘quv-metodik materiallar, tegishli soha bo‘yicha ilmiy журнallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari, turli elektron hamda qog‘oz variantdagи manbalardan foydalilanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild / Sh.M. Mirziyoyev. -T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. Uchinchi nashri. –T.: “O‘zbekiston”, 2022.-440 bet.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ -637-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5924-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022–2026-yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2022-yil 22-avgustdagи “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-357- sonli Qarori..
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-may “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoni.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

1. Ishonkulov A.K., Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida multimedia texnologiyalaridan foydalanish/Uslubiy qo‘llanma.–T.: Zamon poligraf, 2020. – 72 b.

2. Mamajonov Q.M., Axborot xavfsizligi//Uslubiy qo‘llanma.-F.: Umid Design, 2023.-65b.
3. Pulatov J., Xudoyberdiyev R.F., Sportda axborot-kommunikasiya texnologiyalari//Uslubiy qo‘llanma-T.: Umid Design, 2022.-56b.
4. Tolametov A.A., Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari //Darslik. -T.: Umid Design, 2021.-192 b
5. Tolametov A.A., Jismoniy tarbiyada zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish // O‘quv qo‘llanma. -T.: Umid Design, 2021.-172b.
6. Tolametov A.A., Mamadjanov N., Sport metrologiyasi//O‘quv qo‘llanma.-T.: Umid Design, 2022. – 252 b.
7. Tolametov A.A., Maxarov T.A., Interaktiv topshiriqlar, testlar, krossvordlar yaratishda “Hot Potatoes” dasturidan foydalanish”//Uslubiy qo‘llanma.-T.: Ilmiy texnika axboroti-press, 2019.-55 b.
8. Tolametov A.A., Maxarov T.A., Microsoft Word dasturida ishlash//O‘quv qo‘llanma. –T.: Umid Design, 2022. – 122 b.
9. Tolametov A.A., Microsoft Excel dasturida ishlash//O‘quv qo‘llanma.-T.: Umid Design, 2022. – 160 b.
10. Tolametov A.A., MS Offise PowerPoint 2010 dasturida ishlash//Uslubiy qo‘llanma.-T.: Umid Design, 2021. – 96 b.
11. Tolametov A.A., Nurmuxamedov A.M., Maxarov T.A., Axborot texnologiyalari// O‘quv qo‘llanma.-T.: O‘zDJTI, 2008 -120 b.
12. Tolametov A.A., Sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari// O‘quv qo‘llanma.-T.: Zamon Poligraf, 2023. – 244 b.
13. Tolametov A.A., Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish// Uslubiy qo‘llanma.-T.: Zamon poligraf, 2023. – 64 b.
14. Ishonkulov A.K., Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida multimedia texnologiyalaridan foydalanish//Uslubiy qo‘llanma.-T.: Zamon poligraf, 2020. – 72 b.

### **Elektron ta’lim resurslari**

1. <http://edu.uz>
2. <http://gov.uz/>
3. <http://lex.uz>
4. <http://sportedu.uz>
5. <http://uzedu.uz>
6. <http://lib.sportedu.uz>
7. <http://ziyonet.uz>
8. <http://utube.uz/>
9. <http://fikr.uz/>
10. <https://umail.uz>
11. <https://mpe.uz>
12. <http://google.com/>

**MODULNI O‘QITISHDA  
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL  
TA’LIM METODLARI**

**II****MODULDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI****“SWOT-tahlil” metodi****Metodning maqsadi:**

Mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostonart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

**S – (strength)**

- kuchli tomonlari

**W – (weakness)**

- zaif, kuchsiz tomonlari

**O – (opportunity)**

- imkoniyatlari

**T – (threat)**

- to'siqlar

**“Muammoli vaziyat” – metodi**

**Muammoli vaziyat metodi** – tinglovchilarni muammoli vaziyatga to'qnash kelishini ta'minlash asosida ularning bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yo'l. Metodning mohiyati aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va uning yechimi yuzasidan qaror qabul qilishdan iborat.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish **bosqichlari**:

1. Muammoli vaziyatni yaratish.
2. Vaziyatni tahlil qilish asosida muammoni qo'yish.

3. Farazlarni ilgari surish.
4. Yechimni tekshirish.


### “Tushunchalar tahlili” metodi

#### Metodning maqsadi:

Mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalgga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

### Klaster



## **NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

**III****NAZARIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLA****NAZARIY TA'LIM MAZMUNI****1-mavzu. Jismoniy tarbiya va sportda axborot- kommunikatsiya texnologiyalari tushunchasi****Reja:**


- 1.1. Axborot texnologiyalari tushunchasi
- 1.2. Jismoniy tarbiya bo'yicha mutaxassisning pedagogik faoliyatida zamonaviy elektron sport anjomlari imkoniyatlari
- 1.3. Axborot xavfsizligi

**1.1. Axborot texnologilari tushunchasi**

**Axborot tushunchasi.** Axborot — lotincha “informatio” so‘zidan olingan bo‘lib tushuntirish, xabar berish degan ma’nolarni anglatadi.

“Informatsiya” so‘zi ko‘pgina xalqlarning tillarda ishlatalib, turlicha talqin qilinsa ham, ularning asosida lotincha “informatio” so‘zi yotadi. U “tushuntirish”, “tavsiflash”, “xabar berish” degan ma’nolarni anglatadi. O‘zbek tilida informatsiya so‘zi axborot deb tushuniladi.

Axborot deganda biz barcha sezgi a’zolarimiz orqali borliqning ongimizdagи aksi yoki ta’sirini, bog‘liqlik darajasini tushunamiz. Inson axborotni atrof-muhitdan turli xil ko‘rinishlarda va shakllarda oladi: fotosurat, chizma, rasm, yozuv, tovush, elektromagnit to‘lqinlar, elektr va nerv impulsleri, hid va ta’m bilish, mimika va hokazo.

**1.1-rasm. Axborotning inson tomonidan qabul qilinishi**


Inson sezgi organlari orqali qabul qiladigan barcha turdag'i ma'lumotlarni axborot deb tushunish mumkin. Axborot tushuntirish, biror narsani bayon qilish yoki biror narsa yoki hodisa haqidagi ma'lumot ma'nosini anglatadi.

Axborot deganda atrof muhitdan, (tabiatdan yoki jamiyatdan) sezgi a'zolarimiz (ko'z, qulqoq, burun, og'iz, teri) orqali qabul qilib, anglab oladigan har qanday ma'lumotni tushunamiz.

Tabiatni kuzatib, insonlar bilan muloqotda bo'lib, kitob va gazetalar o'qib, televizion ko'rsatuvlari ko'rib biz axborot olamiz.

Quyidagi rasmda inson sezgi organlari orqali axborotlarni qabul qilish tasvirlangan.

Inson sezgi organlari orqali qabul qiladigan axborotning ulushlari quyidagi diagrammada tasvirlangan:



1.2-rasm. Axborotning inson tomonidan qabul qilinishi

Tevarak atrofnini kuzatib biz sezgi a'zolarimiz orqali ma'lumot olamiz. Bu ma'lumotlar bizga doimo ko'z, qulqoq, burun, teri va til orqali keladi.

Insoniyat olingan ma'lumotni saqlashni o'rgandi: matnlar, raqamlar, rasmlar ko'rinishida toshlarga, qog'ozga, kompyuter xotirasiga va boshqalarga yozishni o'rgandi.

Yozuv paydo bo'lgach, bir-birlari bilan ma'lumot almashish — ma'lumotlarni uzatish oson bo'ldi. Garchi, bundan oldin ham ma'lumot nutq yoki oddiy qabiladoshlarning harakatlarini kuzatish orqali uzatilgan.

Shuningdek, odamlar ma'lumotlarni qayta ishlashga muvaffaq bo'lishdi: o'ylash, xulosa chiqarish, ma'lumotlarni boshqa shakllarda taqdim etish (matnni rasm sifatida ifodalash) va hokazo. Biz har kuni (deyarli doimiy) axborotni qabul qilamiz, saqlaymiz, uzatamiz va qayta ishlaymiz.

Axborotni to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatish axborot jarayonlari deb ataladi.

Informatika fani bizga axborotni saqlash, uzatish va qayta ishlash usullarini o‘rganishda yordam beradi. Bularning barchasini ko‘pincha planshetlar, telefonlar, kompyuterlar va boshqa ko‘rinishdagi kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshiramiz.

Inson sezish a’zolari, texnikada turli asboblar yordamida qayd etiladigan tashqi dunyo dalillari ma’lumotlar deb ataladi. Ma’lumotlar aniq vazifalarini hal etishda zarur va foydali deb topilsa — axborotga aylanadi. Demak ma’lumotlarga foydalanilayotgan yoki texnik vositalarda qayta ishlanayotgan, saqlanayotgan, uzatilayotgan belgilar yoki yozib olingan kuzatuvlari sifatida qarash mumkin. Amaliyotda foydali deb topilgan, ya’ni foydalanuvchining bilimlarini oshirgan ma’lumotlarnigina axborot deb atasa bo‘ladi. Ma’lumot – shakllangan ko‘rinishda taqdim etilgan axborot.

**Axborot turlari.** Axborotlarni idrok etish shakli, taqdim etish shakli va maqsadiga qarab quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin.

***Idrok etish shakliga ko‘ra:***

- Vizual
- Audial
- Sezish
- Hid bilish
- Ta’m bilish

***Taqdim etish shakliga ko‘ra:***

- Matnli
- Raqamli
- Grafik
- Tovushli
- Video

***Maqsadiga ko‘ra:***

- Shaxsiy
- Ommaviy
- Maxsus
- Maxfiy

**Axborot o‘lchov birliklari.** Kundalik hayotimizda biz turli xil o‘lchov birliklaridan foydalanamiz. Masalan litr, metr, kilometr, kilogramm, volt, amper, kubometr va boshqalar.

Xuddi shunga o‘xhash axborotning ham o‘lchov birligi mavjud. Ikkilik sanoq tizimida axborotning eng kichik o‘lchov birligi bit hisoblanadi. Bir bit bu bitta “1” yoki bitta “0”.

Bunda signalning mavjudligi “1” bilan, yo‘qligi “0” bilan ifodalash mumkin. Bitlarning butun deb qaraladigan tutash ketma-ketligi bayt deb ataladi. Bayt 8 bitga teng deb qabul qilingan.

Quyida axborotning boshqa o‘lchov birliklari keltirilgan.

1 Kilobayt (Kbayt) = 1024 bayt

1 Megabayt (Mbayt) = 1024 Kbayt

1 Gigabayt (Gbayt) = 1024 Mbayt

1 Terabayt(Tbayt) = 1024Gbayt

1 Petabayt(Pbayt)= 1024 Tbayt

1 Ekzabayt (Ebayt)=1024 Pbayt

**Texnologiya tushunchasi.** Texnologiya so‘zi grekcha “techne” – san’at, hunar, mahorat va “logos” – fan, ta’limot degan ma’nolarni bildiradi.

Texnologiya – qurilish, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va boshqa sohalarda mahsulotlar olish, ularga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullarini ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug‘ullanadigan fan. Har bir sohaning o‘ziga xos texnologiyasi bo‘ladi: kon ishlari texnologiyasi, mashinasozlik texnologiyasi, axborot texnologiyasi, qurilish texnologiyasi, qishloq xo‘jaligi va boshqalar.

Texnologiya obyektining dastlabki, boshlang‘ich holatini o‘zgartirib, yangi, oldindan belgilangan talabga javob beradigan holatga keltiradi.

Mohir pedagog bo‘lish uchun zo‘r mutaxassis bo‘lish bilan birgalikda, yuqori darajadagi san’atkor, ko‘nikma va mahoratga ega bo‘lgan ustoz bo‘lishlari talab qilinadi.

Texnologiyani qo‘llash jarayonsiz sodir bo‘lmaydi. Demak, jarayon orqali texnologiya tatbiq etiladi va bajariladi.

Jarayon – deganda qo‘yilgan maqsadga erishish borasidagi barcha harakatlar majmuasi tushuniladi.

**Axborot texnologiyalari tushunchasi.** Axborot texnologiyalari, har

qanday ma’lumotlarni qayta ishlashda foydalaniladigan kompyuter va telekommunikatsiya tizimlari, matnlarni tayyorlash, ma’lumotlar bazasidan foydalanish va kompyuter tarmoqlari orqali xabarlarni yuborish tizimi – bularning barchasi axborot texnologiyalaridan foydalanishni talab qiladi. Televizion stansiyalar, teletekst xizmatlarini ko‘rsatish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanadi.

Axborot texnologiyalari – ma’lumotlarni to‘plash, saqlash, izlash, qayta ishslash va tarqatish tizimi.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 11.12.2003 yildagi 560-II-son) Qonuniga ko‘ra:

Axborot texnologiyasi – axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar. Axborot madaniyati – axborotlashtirish darajasi (quyida berilgan ta’rifga qarang), informatika usullari va vositalarini bilish. Axborot madaniyatining tarkibiy qismi bu kompyuter savodxonligidir.

Kompyuter savodxonligi – bu kasbiy muammolarni hal qilish jarayonida kompyuterlardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarning kombinatsiyasi.

Axborotlashtirish – bu inson faoliyatining barcha ijtimoiy ahamiyatli turlarida ishonchli bilimlardan to‘liq va o‘z vaqtida foydalanishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui”.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra:

“Axborotlashtirish –yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy, ijtimoiyiqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni”.

## 1.2. Jismoniy tarbiya bo‘yicha mutaxassisning pedagogik faoliyatida zamonaviy elektron sport anjomlari imkoniyatlari

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) zamonaviy hayotning barcha sohalarida, shu jumladan jismoniy tarbiya va sportda muhim rol o‘ynaydi. Jismoniy tarbiya va sport kontekstida AKT sport tadbirdari, mashg‘ulotlar, sport tashkilotlarini boshqarish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bilan bog‘liq ma’lumotlarni to‘plash, saqlash, tahlil qilish va uzatish uchun kompyuter tizimlari, dasturiy ta’midot va tarmoq texnologiyalarini qo‘llashni anglatadi.

*Quyida Jismoniy tarbiya va sportda AKTdan foydalanishning asosiy yo‘nalishlarini keltirib o’tamiz.*

**Samaradorlik tahlili.** Texnologiya real vaqtida rejimida o‘quvchilarni jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida mashiqlarni bajarishdagi samaradorligi haqidagi ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish imkonini beradi. Zaif tomonlarni aniqlash va o‘rganishni optimallashtirish uchun harakat sensorlari, video tahlil va yurak urish tezligini kuzatish tizimlaridan foydalanish.

**SPF V-1** kompyuterlashtirilgan yugurish yo‘lagi turli kompyuter va dasturlar bilan jihozlangan yugurish yo‘lagi LCD monitor ekranida tezlik, vaqt, masofa, yurak urishi tezligi, kaloriya sarfi yoki vaqt oralig‘ida kaloriya sarfi, harakatdagi og‘ish burchagi, harakat samarasini, harakatini jismoniy faollikka moslash (ya’ni tezlikni nazorat qilish) va boshqa turli ma’lumotlarni bevosita kuzatib borish hamda tahlil qilish imkoniyatini beradi (1.1 –rasm).

Kompyuterlashtirilgan yugurish yo‘lakcha sensor display ekranidagi qurilmada qator afzalliklarga ega (1.2 –rasm):

- televizorga ulanishi;
- Wi-Fi orqali boshqa elektron qurilmalar (noutbuklar, planshetlar, smartfonlar) bilan bog‘lanishi;
- Bluetooth orqali noutbuk va mobil telefon bilan ulanishi;
- AUX orqali noutbuk va mobil telefondagi musiqalarni eshitish.



**1.1 –rasm. SPF V-1 kompyuterlashtirilgan yugurish yo‘lagi**



Oldi egilgan tutqichda tezlikni tezkor boshqarish tugmalari joylashtirilgan



19 dyuymli sensor display ekraniga, Wi-Fi orqali Internetning turli sahifalariga o'tish



Maxsus manzarali videokliplarni virtual simulyatori

## 1.2 –rasm. SPF V-1 kompyuterlashtirilgan yugurish yo'lagi display ekranini



Internetdagi multimediali Online tizim xizmatlaridan foydalanish

**Onlayn ta'limga rivojlanish.** Elektron ta'limga resurslari jismoniy tarbiya va sport sohasida o'qitish va jismoniy rivojlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. O'qituvchi o'quvchilar uchun sport turlari bo'yicha video darslar, vebinarlar, ixtisoslashtirilgan kurslar va ta'limga platformalari yaratishg.

**O'quvchilarni jismoniy rivojlanish darajasini bo'yicha ma'lumotlarni toplash va tahlillar.** AKT yordamida har bir o'quvchini dars jarayonidagi harakatlarini bo'yicha ma'lumotlarini toplash. Ushbu ma'lumotlar asosida o'quvchilarni jismoniy rivojlanish darajasini takomillashtirish va dars samaradorligini oshirish mumkin. Shuningdek, AKT yordamida analitik tahlillar o'quvchilarni jismoniy rivojlanish darajasini bo'yicha ma'lumotlarni maksimal aniqlik bilan bashorat qilish imkonini beradi.

O'quvchilarni harakatlarni signallar orqali ro'yxatga olish "Garmin" qurilmalar harakat jarayonida yurak urish tezligi tahlil qilish, harakat davomidagi bosib o'tilgan masofa, harakat tezligini aniqlash va natijalarni saqlash mumkin. Shuningdek, qurilma o'quvchilarning harakat davomida daqiqada necha marta yurak urishini tezligi ma'lumotlariga asoslanib, soniyasiga sarflangan kaloriyasini aniq hisoblash imkonini beradi.



### 1.3-rasm. Garmin qurilm jihozlari

(yurak urish tezligi monitori, sensorli maxsus USB kabeli, yurak urish tezligi monitori uchun tasma)

Shuningdek, Garmin qurilmalar uchun Garmin Connect veb-saytida mashg‘ulotlardagi mashqlar rejasini bepul yaratish, tahlil qilish va tahlil natijalarni olish mumkin.

*Izoh: Garmin Connect veb-saytidagi matn, grafika, fotosuratlar, audio ma'lumotlar, video tasvirlar va boshqa ma'lumotlar tijorat maqsadida va boshqa saytlardan xavolasini qo'yish taqiqlanadi.*

### Fitnes soat qurilmasi.

Jismoniy tarbiya va sport qurilmalari orasida mashhurlik bo'yicha fitnes soat qurilmasi birinchi o'rinda turadi. Uning asosiy vazifasi jismoniy faoliyikni, shu jumladan bosib o'tgan masofani, sarflangan kaloriyalarni va boshqa ko'rsatkichlarni nazorat qilishdir. Bilakuzuk qo'lda chiroyli ko'rindi, ko'p joy egallamaydi va ishlatish uchun qulay, batareya quvvati foydalanish intensivligiga qarab 5 kun yoki undan ko'proq vaqtini oladi.

Fitnes soat qurilmasi mobil telefonlar bilan sinxronlashtiriladi va doimiy ravishda maxsus dasturda kuzatib borish uchun qulay bo'lgan ma'lumotlarni yangilab boradi.

Dastlab ushbu qurilmalarga kiritilgan asosiy funksiyalardan tashqari, bugungi kunda ular masofa va kaloriyalarni hisoblashdan ko'ra ko'proq vazifalarni bajaradilar, shuning uchun ular tobora ko'proq talabga ega.



### 1.4-rasm. fitnes soat qurilmasi

## Muayyan modelga qarab, fitnes soat qurilmasi quyidagi funksiyalarni bajarishi mumkin:

- Pulsni o‘lchash;
- Bosib o‘tilgan qadamlar va masofani kilometrlarda hisoblash;
- Bir kechada uyqu fazalarining to‘liq statistikasini ko‘rish imkoniyati bilan uyquni kuzatib borish;
- Foydalanuvchi tomonidan belgilangan vaqt oralig‘ida uyg‘onish uchun eng yaxshi uyqu fazasida ishlaydigan aqli budilnik tufayli o‘z vaqtida uyg‘onish;
- Qo‘ng‘iroqlar, SMS va boshqa smartfon ogohlantirishlari haqida xabar berish;
- Mashg‘ulot turini tanlashda faollikni kuzatish uchun barcha kerakli parametrlarni ko‘rsatish.

### 1.3. Axborot xavfsizligi



**Axborotlarga nisbatan mavjud xavfsizliklarning asosiy tushunchalari va uning tasnifi.** Umumjahon axborot globallashuvi jarayonlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini nafaqat mamlakatlar iqtisodiyoti va boshqa sohalariga joriy etish, balki axborot tizimlari xavfsizligini ta‘minlashni ham taqozo etayotir.

O‘zbekiston axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xalqaro xavfsizlik tizimiga Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib qo‘sildi.

Axborot xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi tomonidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

Ma’lumotlar uzatish, telekommunikatsiya tarmoqlari, teleradioefir hamda axborot tizimlarida axborot xavfsizligini ta‘minlashni takomillashtirish va rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatini yuritish;

Axborot xavfsizligiga oid qonunchilik va me’yoriy-huquqiy hujjatlarining yaratilishini tashkil qilish va bunda ishtiroy etish;

Axborot tizimlari komplekslari, resurslari va ma’lumotlar bazalarining axborot xavfsizligini ta‘minlash;

davlat organlarining axborot tizimlari va resurslari axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ko‘maklashish;

davlat axborot tizimlari va resurslarining axborot xavfsizligini ta‘minlash yuzasidan monitoring natijalari to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasiga belgilangan tartibda taqdim etish;

telekommunikatsiyalar tarmoqlarining operatorlari va provayderlari bilan hamkorlik qilish, davlat organlarining kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi qonun buzilishlarining oldini olish masalalari bo‘yicha birgalikdagi ishlarini tashkil etish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;

Internetning milliy foydalanuvchilarini Internet tarmog‘i milliy segmentida axborot xavfsizligiga paydo bo‘layotgan tahdidlar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor

qilish, shuningdek axborotlarni muhofaza qilish bo‘yicha konsultatsiya xizmatlari ko‘rsatish;

qonun buzuvchilarni tahlil qilish, identifikatsiyalashda, axborotlar makonidagi ruxsatsiz yoxud buzuvchi harakatlarni amalga oshirishda foydalaniladigan metodlar va vositalarni tahlil qilishda huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish;

Internet tarmog‘i milliy segmentida axborot xavfsizligi hodisalarining oldini olish bo‘yicha o‘zaro amaliy ishlarni tashkil etish maqsadida axborot xavfsizligi sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Axborot xavfsizligini ta’minlash markazining asosiy maqsadi etib, «Elektron hukumat» tizimining axborot tizimlari, resurslari va ma’lumotlar bazalarining, shuningdek Internet tarmog‘i milliy segmentining axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, davlat organlari tizimlari va axborot resurslarida axborot xavfsizligini ta’minlash belgilangan.

Markaz xodimlari axborot xavfsizligiga hozirgi vaqtdagi tahdidlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va to‘plash bilan shug‘ullanadilar, «Elektron hukumat» tizimi axborot tizimi, resurslari va ma’lumotlar bazalariga noqonuniy kirib olish holatlarining oldini olishni ta’minkaydigan tashkiliy va dasturiy-texnik yechimlarni samarali qabul qilish bo‘yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqishda ishtiroy etadilar.

“Elektron hukumat” tizimi axborot xavfsizligini ta’minlashning me’yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha takliflarini ishlab chiqish ham Markazning maqsad-vazifalari hisoblanadi.

**Axborot xavfsizligini ta’minlash.** Axborot xavfsizligini ta’minlash – bu foydalanuvchining axborotlarini himoyalashga quyilgan me’yor va talablarni bajarishidir. Axborot xavfsizligi esa bu axborot foydalanuvchilariga va ko‘plab axborot tizimlariga zarar keltiruvchi tabiiy yoki sun’iy xarakterga ega tasodifiy va uyushtirilgan ta’sirlardan axborotlarni va axborot kommunikatsiya tizim ob’ektlarining himoyalanganligidir.

**Login tushunchasi.** Login – shaxsning, o‘zini axborot kommunikatsiya tizimiga tanishtirish jarayonida qo‘llaniladigan belgilar ketma-ketligi bo‘lib, axborot kommunikatsiya tizimidan foydalanish huquqiga ega bo‘lish uchun foydalanuvchining maxfiy bo‘lmagan qayd yozuvi hisoblanadi.

**Parol tushunchasi.** Parol – uning egasi haqiqiyligini aniqlash jarayonida tekshiruv axboroti sifatida ishlatiladigan belgilar ketma-ketligi. U kompyuter bilan muloqot boshlashdan oldin, unga klaviatura yoki identifikatsiya kartasi yordamida kiritiladigan harfli, raqamlı yoki harfli-raqamlı kod shaklidagi mahfiy so‘zdan iborat.

**Avtorizatsiya tushunchasi.** Avtorizatsiya – foydalanuvchining resursdan foydalanish huquqlari va ruxsatlarini tekshirish jarayoni. Bunda foydalanuvchiga hisoblash tizimida ba’zi ishlarni bajarish uchun muayyan huquqlar beriladi. Avtorizatsiya shaxs harakati doirasini va u foydalanadigan resurslarni belgilaydi.

**Ro‘yxatdan o‘tish tartibi.** Ro‘yxatdan o‘tish– foydalanuvchilarni ro‘yxatga olish va ularga dasturlar va ma’lumotlarni ishlatishga huquq berish jarayoni. Ayrim veb-saytlar foydalanuvchilarga qo‘srimcha xizmatlarni olish va pullik xizmatlarga

obuna bo‘lish uchun ro‘yxatdan o‘tishni, ya’ni o‘zi haqida ayrim ma’lumotlarni kiritishni (anketa to‘ldirishni) hamda login va parol olishni taklif qiladilar. Foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng tizimda unga qayd yozuvi (account) yaratiladi va unda foydalanuvchiga tegishli axborotlar saqlanadi.

**Login va parolga ega bo‘lish shartlari.** Biror shaxs o‘zining login va paroliga ega bo‘lishi uchun u birinchidan axborot kommunikatsiya tizimida ruyxatdan o‘tgan bo‘lishi kerak va shundan so‘ng u o‘z logini va parolini o‘zi hosil qilishi yoki tizim tomonidan berilgan login parolga ega bo‘lishi mumkin. Login va parollar ma’lum uzunlikdagi belgilar ketma-ketligidan tashkil topadi. Login va parollarning uzunligi va qiyinligi uning qanchalik xavfsizligini ya’ni buzib bo‘lmasligini ta’minlaydi.

**Login va parolni buzish.** Login va parolni buzish – bu buzg‘unchining biror bir maqsad yo‘lida axborot kommunikatsiya tizimi ob’ektlaridan foydalanish uchun qonuniy tarzda foydalanuvchilarga tegishli login va parollarini buzishdir. Bunda maxsus dastur yordamida login va parollar generatsiya qilib topiladi. Login va parollarning uzunligi bu jarayonning uzoq vaqt davom etishiga yoki generatsiya qilaolmasiligiga ishora bo‘ladi.

**Login va parolni o‘g‘irlash.** Login va parolni o‘g‘irlash – bu foydalanuvchilarning mahfiy ma’lumotlari bo‘lgan login va parollarga ega bo‘lish maqsadida amalga oshiriladigan internet firibgarligining bir turidir. Bu mashhur brendlari, masalan, ijtimoiy tarmoqlar, banklar va boshqa servislar nomidan elektron xatlarni ommaviy jo‘natish yo‘li orqali amalga oshiriladi. Xatda odatda tashqi ko‘rinishi asl saytdan farq qilmaydigan saytga to‘g‘ri ishorat mavjud bo‘ladi. Bunday saytga tashrif buyurgan foydalanuvchi firibgarga akkauntlar va bank hisob raqamlariga kira olishga ega bo‘lishga imkon beruvchi muhim ma’lumotlarni bildirishi mumkin. Fishing – ijtimoiy injeneriyaning bir turi bo‘lib, foydalanuvchilarning tarmoq xavfsizligi asoslarini bilmasligiga asoslangan. Jumladan, ko‘pchilik oddiy fakt ni bilishmaydi: servislar qayd yozuvningiz ma’lumotlari, parol va shu kabi ma’lumotlarni yuborishni so‘rab hech qachon xat yubormaydi.

**Resurslardan ruxsatsiz foydalanish va uning oqibatlari.** Axborot-kommunikatsiya tizimining ixtiyoriy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan hamda axborot tizimi taqdim etadigan imkoniyat mavjud bo‘lgan resurslardan belgilangan qoidalarga muvofiq bo‘lmagan holda foydalanishni cheklash qoidalariга rioya qilmasdan foydalanish – bu resurslardan ruxsatsiz foydalanish toifasiga kiradi. Bunday foydalanish natijasida quyidagi oqibatlar yuzaga kelishi mumkin:

- axborotning o‘g‘irlanishi;
- axborotni o‘zgartirish;
- axborotning yo‘qotilishi;
- yolg‘on axborotni kiritish;
- axborotni qalbakilashtirish va h.k.

**Kompyuter virusi.** Kompyuter virusi – bu o‘z-o‘zidan ko‘payuvchi, kompyuter tarmoqlari va axborot tashuvchilari orqali erkin tarqaluvchi, hamda kompyuter va unda saqlanayotgan axborot va dasturlarga zarar etkazuvchi dastur kodi yoki komandalar ketma-ketligi hisoblanadi. Kompyuter viruslari quyidagi xossalarga ega: o‘zidan nusxa ko‘chirish, axborotdan ruxsatsiz foydalanishni amalga oshirish. U o‘zining nusxalarini kompyuterlarda yoki kompyuter tarmoqlarida qayta ko‘paytirib va tarqatib, hamda

qonuniy foydalanuvchilar uchun nomaqbul harakatlarni bajaradi. Virus, aksariyat hollarda nosozlik va buzilishlarga sabab bo‘ladi va biror hodisa yuz berishi bilan, masalan, aniq kunning kelishi bilan ishga tushirilishi mumkin.

**Axborot xavfsizligi sohasidagi tahdidlar.** “Axborot xavfsizligiga tahdid manbalari tasodifiy va oldindan ko‘zlangan bo‘lishi mumkin”.

**Tasodifiy tahdidlar-** dastur ta’minotidagi kamchiliklar, texnik vositalarning nosozligi, foydalanuv-chining malakasi yetishmasligi yoki tasodifiy xatolari hisoblanadi.

**Oldindan ko‘zlangan tahdidlar-** axborot zahiralariga zarar yetkazish maqsadida atayin amalga oshiriladi. Ular faol(aktiv) va nofaol(passiv) bo‘ladi. Nofaol tahdidlarga axborot zahiralaridan ularning vazifalariga ta’sir ko‘rsatmagan holda ruxsat berilmagan foydalanishga bo‘lgan intilishlar kiradi. Texnik va dastur vositalariga, axborot zahiralariga ta’sir qilish yo‘li bilan tizimning mo‘tadil faoliyatini buzishga qaratilgan tahdidlar faol tahdidlar hisoblanadi.

Axborot xavfsizligiga tahdidlar xavfni bartaraf etishning ma’qul yo‘li, shu xavfni oldindan aniqlab, unga qarshi ehtiyyot choralarini qo‘llash hisoblanadi. Shuningdek, axborot xavfsizligini ta’minalash borasida ham sohaga nisbatan asosiy tahdid manbalarini aniqlash va himoya choralarini qo‘llash birlamchi vazifalardan hisoblanadi.

Axborot xavfsizligiga tahdid manbalari ichki va tashqi manbalarga bo‘linadi. Mutaxassislarning e’tirof etishicha, axborot xavfsizligining dolzarb muammoga aylanishiga asosan tashqi manbalar sabab bo‘lgan. Chunki, bugun zamonaviy dunyoga egalik qilish uchun kurashning asosiy vositasi sifatida axborot tilga olinmoqda. Bunday vaziyatda axborot texnologiyalari va axborot boshqaruvi yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlar o‘zidagi bu ustunlikdan ijtimoiy ongga ta’sir ko‘rsatish yo‘lida foydalanishdan tom ma’noda manfaatdor hisoblanadi.

#### **Axborot xavfsizligiga tahdidning tashqi manbalari:**

- chet el jouslik va maxsus xizmatlarining faoliyati;
- chet el ommaviy axborot va global kommunikatsiya vositalari;
- xalqaro guruhrilar, tuzilmalar va alohida shaxslarning noqonuniy harakatlari;
- axborot tarqatish va foydalanish bo‘yicha xorijiy davlatlar siyosatining amalga oshirilishi
- tabiiy ofatlar va fojealar.

#### **Axborot xavfsizligiga tahdidning ichki manbalari:**

- siyosiy, iqtisodiy va jamoat tashkilotlarining, alohida shaxslar va guruhlarning axborot to‘plash, tarqatish va foydalanish sohasidagi noqonuniy faoliyatlar;
- axborot sohasida fuqarolar va tashkilotlar huquqlarining buzilishiga olib keluvchi davlat tizimlarining qonuniy harakatlari va ko‘zda tutilmagan xatolari;
- axborot tizimlarining dasturiy-texnik vositalarining bazaviy texnologiyalarini yaratish, sinash va ishlab chiqarish bo‘yicha mahalliy sanoatning talab darajasida emasligi.

Shaxsning axborot xavfsizligiga daxl qilganlik uchun javobgarlik normalarini qo‘l-lash axborot xavfsizligini ta’minalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, respublikamizda 2007 yilda “Axborotlashtirish va ma’lumotlar uzatish sohasida qonunga xilof harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilganligi

munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi.

Axborot xavfsizligini ta’minlashning eng dolzarb masalalaridan biri internetdagi axborot xavfsizligi bo‘lib, undan himoyalanishning bugungi kunda ko‘plab usullari mavjud. Shulardan eng oddisi parol qo‘yishdir. Simsiz tarmoqni samarali himoya qilish uchun avvalo unga qanday xatar xavf solayotganligini foydalanuvchi bilishi lozim.

1. Wi-Fi qurilmalari orqali lokal tizimlarga ulanishi orqali fayllar, hujjatlar va hokazo olish;

2. Tarmoq orqali uzatiladigan axborotni buzish;

3. Elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntni buzish;

4. Ichki tarmoqdann xabarlarni noqonuniy jo‘natish.

5. Internet traffikni o‘g‘irlash;

Axborot xizmati xodimlari kompyuter xujumlaridan saqlash uchun, avvalo ularning eng keng tarqalgan turlaridan xabardor bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Axborot nima?

3. Axborot texnologiyasi nima?

4. Axborot madaniyati nima?

5. Axborot texnologiyalari fani nimani o‘rgatadi?

6. "Jismoniy tarbiya va sportda axborotlashtirish" nima?

7. Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan jismoniy tarbiya va sportda qanday foydalanish mumkin?

## **AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

**IV****AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLA****2-mavzu. Internet tarmog'i xizmatlari va ulardan foydalanish****Reja:**

- 2.1. Elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar
- 2.2. Davlat axborot resurslari va interaktiv xizmatlar
- 2.3. Onlayn tizimlar

**2.1. Elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar**

**Elektron pochta xizmati.** Internet xalqaro tarmog'ining asosini electronic mail (e-mail)-elektron pochta xizmati tashkil qiladi. Elektron pochta xuddi odatdag'i pochtadek bo'lib, faqat bunda xatni qog'ozga emas, balki kompyuter klaviaturasidan harf va so'zlarni terib, ma'lum elektron yozuv ko'rinishiga keltiriladi.

Elektron pochta maxsus dastur bo'lib, uning yordamida internet tarmog'i orqali dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron manzilga xat, hujjat, ya'ni ixtiyoriy ma'lumotni tezda (bir necha soniya va daqiqalarda) jo'natish va qabul qilib olish mumkin.

yuborayotgan foydalanuvchi va qabul qilayotgan foydalanuvchi ham Internet tarmog'iga ulangan kompyuterga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.



2.1.-rasm. Elektron xabar uzatish ketma-ketligi

Elektron pochta manzili umumiy holda quyidagicha ko'rinishga ega:  
**name@domain2.domain1**

Elektron pochta manzili quyidagi qismlardan tashkil topgan: pochta qutisi nomi, @ belgisi va pochta serveri manzilidan iborat bo'ladi.



O‘zbekiston Respublikasi ham o‘z milliy elektron pochtasiga ega.




**uMail.uz** elektron pochta xizmati. ID.UZ tizimida ro‘yxatdan o‘tgan har bir foydalanuvchi uMail.uz tizimida pochta qutisiga ega bo‘lishi mumkin.

### Asosiy afzalliklari:

- xatlar O‘zbekistonda joylashgan serverlar orqali almashishi ma’lumotlar almashish xavfsizligini ta’minlaydi;
- xalqaro trafikdan foydalanmaslik;
- pochtaga keluvchi xatlar to‘g‘risida ma’lumotni SMS-xabar orqali olish mumkinligi;
- ID.UZ tizimi bilan integratsiyasi Elektron hukumat axborot tizimlarida ishlatish imkonini beradi.

uMail.uz ning bosh sahifasi quyidagi 2.2-rasmda berilgan.



2.2-rasm. uMail.uz elektron pochta bosh sahifasi

Yangi elektron pochta yaratish bo‘yicha to‘liq ma’lumot uMail.uz bosh sahifasining “**Qo‘llanmalar**” bo‘limida berilgan.

### Ijtimoiy tarmoqlar.

**Telegram**<sup>1</sup>- bepul dastur, tezkor aloqa almashish vositasidir. Har qanday sinxron tarzda bir nechaqurilmalarga o‘rnatish mumkin, masalan, kompyuter, smartfon telefon, planshet, televizor shuningdek onlayn versiyalari ham mavjud. Shuningdek, foydalanuvchilar matn, tasvir, video, audio va ko‘p turdagи fayllarni (docx, rar, mp4, mp4 va hokazo), ovozli va video qo‘ng‘iroqlarni amalga oshirish, kanal va guruhlarda ovozli

<sup>1</sup> Telegram -2013-yilda Rossiyalik aka-uka Nikolay va Pavel Durovlar tomonidan ishlab chiqilgan



hamda video muloqotlarda ishtirok etish hamda havolalarni kompyuterdan smartfonga yuborish qulay bo‘lgan messenger dastur.

**Chat** — ikki tomon o‘rtasidagi yozishmalar.

**Maxfiy chat** — ikki nafar foydalanuvchining yozishmalari. Muloqot paytida xabarlar maxsus, takomillashtirilgan xavfsizlik protokoli bilan shifrlangan holda faqat ikkita mobil qurilma o‘rtasida aloqa o‘rnataladi.

**Guruhi chat** — muloqot davomida uch yoki undan ortiq foydalanuvchilar o‘rtasidagi yozishmalar.

Telegram boshqa messengerlardan farqli botlar va kanallar yaratish imkoniyati mavjud.


**Botlar** -Telegram messenjeri dasturining ichidagi foydalanuvchilarning savollariga javob berish, ma’lumot qidirish, mijozlarga maslahat berish imkonini beruvchi dastur. Kanallar - bu unga a’zo bo‘lgan cheksiz foydalanuvchilarga xabar yuborish imkonini beruvchi chatlar. Ular blog va yangiliklar tasmasining aralashmasidir.

**Kanallar** - esa o‘zida ko‘pgina foydalanuvchilarni jamlab, ularga ma’lumotlar almashish joy. Telegramning rivojlanishi ko‘plab ilmiy-ommabop kanallarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu esa ixtiyoriy soha mutaxassislari shu jumladan sport mutaxassislari sport turi bo‘yicha alohida shaxsiy kanalini yuritishi hamda faoliyatidagi yangiliklar, fikrlar va yutuqlarini e’lon qilib borish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Telegramning rivojlanishi ko‘plab ilmiy-ommabop kanallarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu esa ixtiyoriy soha mutaxassislari shu jumladan sport mutaxassislari sport turi bo‘yicha alohida shaxsiy kanalini yuritishi hamda faoliyatidagi yangiliklar, fikrlar va yutuqlarini e’lon qilib borish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Sport sohasi yoki turlari bo‘yicha kanal ochishda eng muhim nom tanlash, ya’ni tanlangan nom tizimda mavjudlaridan ajralib turishi, sifatini ifodalashi va sohaga doir ma’lumotlar berilishi haqidaligini bildirishi hisoblanadi.

Rasmda ko‘rsatilgan sahifada mos maydonlarga, ya’ni “**Название канала**” yaratilaётган kanal nomi va “**Описание (необязательно)**” (Tavsif (ixtiyoriy)) ko‘rsatilgan joyga kanalni qisqacha tasnifi ёзилади hamda “**Создать**” tugmasi bosilib keyingi bosqichga o‘tiladi.



### 2.3-rasm. Kanal ochish uchun muloqat oynasi

Yaratilgan kanalga administratori 200 ta foydalanuvchi qo‘sish imkoni mavjud, boshqa foydalanuvchilarga kanal havolasini ijtimoiy tarmoqlar yoki elektron pochta orqali yuborish mumkin. Shuningdek, kanalni rivojlantirish uchun turli kataloglar,

yaratilgan kanal sohasiga mos bo‘lgan takrorlanmagan shaxsiy kontentlarni joylashtirish kerak.

Sport ta’lim jarayonida Telegram messenjerdan foydalanib har bir sport turi bo‘yicha alohida chatlarni yaratish bu yesa sportda Telegram tarmog‘ini targ‘ibotchi sifatida yoshlarini jipslashtirish, tarmoqda sportga oid ommabop guruqlar orqali sportni respublikamizda yanada rivojlantirishda bevosita xizmat qiladi.



Facebook dunyo bo‘ylab har kuni millionlab odamlar kiradigan raqamli ijtimoiy tarmoq. Facebook ijtimoiy tarmoq veb-sayti Garvard talabalarining shaxsiy foydalanishi uchun 2004 yilda tashkil etilgan va ko‘plab tillarga tarjima qilingan.

Facebook ijtimoiy tarmoq o‘z foydalanuvchilariga sharhlar, fotosuratlar, havolalar, foydalanuvchilar orasida jonli videolarni, jonli suhbatlashishlari va fikr almashish imkon beradigan juda ko‘p turli xil vositalarga ega platformadir.

Facebook ijtimoiy tarmoqda akkaunt yaratish [facebook.com](http://facebook.com) manzildagi sayt orqali ro‘yhatdan o‘tiladi.


Sport ta’lim jarayonida Facebook ijtimoiy tarmoqlarda har bir sport turi bo‘yicha alohida chatlarni yaratish bu yesa sportda Facebook ijtimoiy tarmoqni targ‘ibotchi sifatida yoshlarini jipslashtirish, tarmoqda sportga oid ommabop guruqlar orqali sportni respublikamizda yanada rivojlantirishda bevosita xizmat qiladi.



**YouTube<sup>2</sup>**, LLC-videomateriallar hostingini taqdim etuvchi Websayt. YouTubedan foydalanish qulay va ko‘rish osonligi tufayli juda ham mashhur va kirib ko‘rvuchilari soni ko‘pligi bo‘yicha jahonda uchinchi o‘rinda turadigan saytdir. Saytda professional videolavhalar, havaskor videolar va videobloglar taqdim etilgan ijtimoiy video portal.

YouTube video portalda Google akkaunt ega bo‘lgan foydalanuvchilar akkaunt doirasida faqat bitta shaxsiy kanal ochish va uni yuritish mumkin. Shuningdek, kanal nomi hamda belgisi avtomatik tarzda Google profilidan oladi.


**YouTubeda kanal ochish.** Ixtiyoriy brauzerning manzil maydonchasiga [youtube.com](http://youtube.com) adresini yozamiz. Natijada 8.10-rasmida ko‘rsatilgan sahifa ochiladi.



8.10. YouTube video portali


<sup>2</sup> YouTube platformasi 2005-yilda PayPalning ning sobiq xodimlari — Javed Karim, Chad Hurley, Steve Chenlar tomonidan ishlab chiqilgan va 2005-yilning 14-fevralida ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Ochilagan YouTube video portalning sahifa interfeysining yuqori o‘ng burchagidagi Google akkaunt profili belgisi ustiga sichqonchaning chap tugmasi bosilganda qo‘sishimcha kontekst menyusidagi “Создать канал” (Kanal yaratish) matn ustiga bosilganda “Основные сведения” (Asosiy ma’lumotlar) muloqat oyna ochiladi (2.4-rasm).



## 2.4-rasm. YouTube video portalida kanal yaratishning kontekst menyusi

Ochilgan “Основные сведения” (Asosiy ma’lumotlar) muloqat oynasida yaratilayotgan kanal nomi kiritiladi masalan, “Milliy kurash” va “Создать канал” (Kanal yaratish) tugmasi bosilganda shaxsiy kanal yaratiladi (8.12-rasm).




## 2.5-rasm. YouTube video portalida “Milliy kurash” nomli shaxsiy kanal sahifasi

Shuningdek, YouTube video portalning 90 kun davomida 3 marta kanal nomi o‘zgatirish uchun ruxsat beradi.

YouTube video portalda yaratiligan shaxsiy kanal Google akkaunt ma’lumotlari bilan bog‘langan bo‘ladi. Shaxsiy kanal bir qancha cheklashlar mavjud, ko‘plab imkoniyatlardan foydalanish va ko‘pchilik jalb qilish uchun brend<sup>3</sup> kanal yaratish kerak.


Brend kanal ochish uchun YouTubedagi shaxsiy kanalga akkaunt menyusidagi sozlamalari orqali amalga oshiriladi.

<sup>3</sup> **Brend** (inglizcha: brand [brænd]) — tamg‘a, belgi. (Brend — bu bir ma’lumotni boshqa bir ma’lumotlardan ajratib turuvchi nom, atama, dizayn, belgi yoki boshqa xususiyat...)



## 2.6-rasm. YouTubedagi brend kanal yaratish uchun sozlamalari

Akkaundagi sozlamalari bo‘limida “**Создать канал**” (Kanal yaratish) tanlanadi hamda ochilgan sahifada yaratilishi kerak bo‘lgan yangi kanal nomini kiritib “**Создать**” (Yaratish) tugmasi bosiladi (8.14-rasm).



## 2.7-rasm. YouTubedagi brend kanalni nomlash

Shu tartibda yangi brend kanal yaratiladi.

Ijtimoiy tarmoqlardan sport o‘quv mashg‘ulot jarayonida foydalanish ma’lumotlar almashinuviga yordam beradi, shug‘ullanuvchilarning o‘quv mashg‘ulot faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi va mashg‘ulot samaradorligini oshiradi, ijodiy qobiliyat va qiziqishni rivojlantirishni rag‘batlantiradi. Bu omillarning barchasi kelajakda sport yutuqlarini egallashda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

## 2.2. Davlat axborot resurslari va interaktiv xizmatlar

**O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portalı.** O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalı O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining Internet tarmog‘idagi rasmiy davlat axborot resursi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalining tashkil etilishi va qo‘llab-quvvatlanishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 3 iyundagi 188-son qaroriga muvofiq amalga oshirilayapti.

O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalı davlat organlarining, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslar o'rtaсидаги elektron-axborot hamkorligi infratuzilmasining tizim tashkil etuvchi elementi hisoblanadi.

The screenshot shows the official website of the Government of Uzbekistan. At the top, there is a header with the text "DAVLAT TASHKILOTLARI" and the "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMAT PORTALI". Below the header, there is a large banner featuring a golden "O'ZB" logo. The main content area is titled "O'ZBEKISTON UMUMIY MA'LUMOT". On the right side of the main content, there is a sidebar with a list of links: "Davlat hokimiysi", "Prezident", "Davlat ramzları", "O'zbekiston – 2030" strategiyasi", "Davlat xardirlari", "Geografiy joylashuvi", "Hudud", "Aholi", "Ob-havo", "Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning davlat reyestri", "Kommunal xo'jalik va uy-joy fondi portalı", "Elektron litsenziyalash tizimi", and "Tadbirkorlikni ro'yxatidan o'tkazish". Below this, there is a grid of nine categories: "TA'LIM VA INNOVATSIYALAR", "IJTIMOIY HIMOYA VA BANDLIK", "ATROF-MUHIT", "SOG'LIQNI SAQLASH", "HUQUQ VA QONUNCHILIK"; "IQTISODIYOT VA MOLIYA", "TASHQI SIYOSAT VA XAVFSIZLIK", "RAQAMLI TEHNOLOGIYALAR VA TRANSPORT", "QURILISH VA UJJKX", "YOSHLAR VA SPORT"; and "QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI", "INVESTITSIYALAR, SANOAT VA SAVDO", "TURIZM VA MADANIYAT", "ENERGETIKA", "HUDUDIY RIVOJLANISH".

## 2.8. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portalı bosh sahifasi

### Asosiy maqsadlari

Fuqarolar va xo'jalik sub'ektlariga hokimiyat va boshqaruvi organlari tomonidan taqdim etiladigan axborot resurslari va xizmatlarining hajmini oshirishga mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan axborot tizimini yaratish;

O'zbekiston Respublikasi Hokimiyatining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalı maqsadli auditoriyasini zarur muassasalar bilan o'zaro aloqa qilish jarayonlari va imkoniyatlari to'g'risida, fuqarolarning majburiyatları va huquqlarining kelib chiqishi to'g'risida, davlat hokimiyati organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotlardan to'liq, tezkor va foydalanishda qulayligi, davlat hokimiyati organlari va boshqaruvining rasmiy pozitsiyasini aks ettiruvchi keng ko'lamdag'i axborotlar bilan ta'minlash;

Cheklangan xizmatlanishga mo'ljallangan axborotga kiritilgan ma'lumotlardan tashqari, tegishli axborot resurslarini joylashtirish va tashkil etish yo'li bilan fuqaro va tashkilotlarni davlat ijro hokimiyati organlarining faoliyati to'g'risidagi rasmiy axborotga kirishini ta'minlash;

Davlatlararo axborotlar almashinuvining intensifikatsiyasi;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini oshirish va milliy iqtisodiyotimizga investitsiyalarni jalb etish uchun shart-sharoitlarni yaratish;

### Asosiy funktsiyalari:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot hamjihatligini ta'minlash; ma'lumotlarni belgilangan formatdagi taqdimida davlat muassasalari o'rtaSIDA «hukumat» darajasida axborotlarni gorizontal almashinuv;

ma'lumotlarning markazlashtirilgan bazasiga kirish asosida yagona axborot resurslaridan birgalikda foydalanish;

iqtisodiy, huquqiy, statistik, elektoral axborotlar bilan vertikal axborot almashinushi;

davlat-jamiyat hamjihatligini ta'minlash;

davlat-fuqaro;

davlat-iqtisodiy munosabatlar subyektlari;

davlat-jamoat institutlari (siyosiy, diniy, milliy, madaniy, notijorat va hkz. tashkilotlar va birlashmalar);

tashqi auditoriyaga mo'ljallangan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ko'psonli axborot resurslariga, idoralarning «yoymilgan» serveriga kirishning yagona nuqtasini yaratish;

davlat institutlarining faoliyati to`g`risida axborotlarni taqdim etish;

huquqiy axborotga kirishni ta'minlash(respublika, mintaqaviy qonunchilik, vazirlik va idoralarning normativ aktlari);

davlatda «Global axborotlashgan jamiyat»ga mos munosabatlarni bunyod etish va shakllantirishga ko`maklashish;

davlat institutlarining ishslash samaradorligini oshirish;

idoraviy va byurokratik to`sinqlarni engib o'tishga ko`maklashish;

davlat xizmatining obro`si va nufuzini oshirish.

### **Portaldan foydalanish imkoniyatlari:**

Ushbu portal undan foydalanish imkoniyatlarini yuqori darajada ta'minlashni hisobga olgan holda loyihalashtirilgan va ishlab chiqilgan. Bunda turli xil funktsiyalar va buyruqlar, grafik belgilar va rasmlarni ishlatmagan holda, bevosita HTMLG'CSS texnologiyalari bilan ishlab chiqilgan.

Ushbu portal Butunjaxon urgimchak to'ri Konsortsiumi (W3C) tomonidan ishlab chiqilgan barcha qoidalarga to'liq amal qilgan holda yaratilgan. Konsortsium tomonidan ishlab chiqilgan ushu qoidalar 14 ta banddan iborat bo'lib, ular 3 ta birlamchi guruhlarga bo'lingan: birinchi guruh qoidalari amal qilish majburiy, ikkinchi guruh qoidalari amal qilish lozim, etarli darajada standartlarga mos kelish uchun uchunchi gurux qoidalari amal qilish tavsiya etiladi.

W3C qoidalariiga javob berish darajasiga ko'ra barcha saytlar toifalarga bo'linadi. A toifasi birinchi guruh qoidalari to'liq javob berishni anglatadi, AA toifasi birinchi va ikkinchi guruh qoidalari, AAA toifasi barcha guruh qoidalari javob berishni anglatadi. Ushbu portal kamida A toifasida, va asosan AA toifasiga javob berish darajasida ishlab chiqilgan. Qo'shimcha ma'lumotlarni "W3C foydalanish imkoniyatlari qoidalari" bo'limida topishingiz mumkin.

### **Rasmlardan foydalanish:**

Portaldagi barcha rasmlar alt text deb nomlanadigan muqobil ta'rifli matn bilan ta'minlangan. Bundan tashqari barcha asosiy HTML teglar tegishli role atributi bilan ta'minlangan bo'lib bu turli xil matn uquvchi brauzerlar, skrinriderlar va boshqa yordamchi texnologiyalar tomonidan tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Portala uning yuklanish vaqtini qisqartirish, xajmini kamaytirish maqsadida rasm ko'rinishidagi fayllarni iloji boricha kam ishlatishga harakat qilingan.

Shriftlar xajmini o'zgartirish va brauzerlar aro moslik:


Portalda brauzer orqali xajmini o'zgartirish imkoniyati mavjud bo'lgan shriftlar qo'llangan. Internet Explorer brauzerida shrift xajmini o'zgartirish uchun Prosmotr (View) bo'limiga kirib Razmer teksta (Text Size) bo'limosti tanlash va eng kichik (Smallest) xajmdan to eng katta (Largest) xajimgacha istalganini tanlash mumkin. Portalda shriftlar o'rtacha (Medium). xajmda berilgan.

Mozilla Firefox brauzerida shrift xajmini o'zgartirish uchun Prosmotr (View) > Masshtab (Zoom) bo'limiga kirib Uvelichit (Zoom In), Umenshit (Zoom Out) yoki Uvelichit tolko tekst (Zoom Text Only) funktsiyalaridan foydalanish mumkin. Matnni dastlabki xajmga qaytarish uchun Sbros (Reset) bo'limini tanlash lozim. Ushbu portal undagi elementlar xajmini istalgan tarzda uzgartirish imkoniyatlari bilan birga yaratilgan.

Portal ushbu brauzerlarga mos kelishi bo'yicha tekshirishlardan o'tgan: IE8Q, Firefox 3Q, Opera 9Q, Safari 4Q, Chrome. Shu bilan birga portalning faqat matndan tashkil topgan ko'rinishiga ham ega bo'lib, ushbu ko'rinish ham zamonaviy brauzerlar hamda skrinriderlarga mos kelishi bo'yicha tekshirishlardan o'tgan.

**OneID.** Yagona identifikatsiya tizimi (YAIT) OneID davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va tijorat tashkilotlarining turli vebsaytlari va portallariga barcha foydalanuvchilar uchun qulay foydalanish uchun mo'ljallangan.

OneID veb-saytlarga bir qator xizmatlarni taqdim etish uchun foydalanuvchilarni aniqlash imkonini beradi. Buning uchun foydalanuvchilar o'zlarining shaxsiy ma'lumotlarini YAIT OneID-da, jumladan login, parol, to'liq ism, JSHSHIR va hokazolarni oldindan ro'yxatdan o'tkazishlari kerak.



OneID tizimida ro'yxatdan o'tish uchun quyidagi sahifadagi maydonlarni shaxsiy ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak bo'ladi.

## Рўйхатдан ўтиш

Идентификациялаш

Тасидиклаш

\* Мажбурий майдонлар юлдуча билан белгиланган

Мен Ўзбекистон Республикаси фуқаросиман

Мен чет эл фуқаросиман

Түғилган санаси \*

Паспорт серияси ва рақами \*


Электрон почта манзили \*

Келажакда тизимда фойдаланиладиган  
ҳақиқий телефон рақамини киритинг.  
Ушбу рақамга СМС юборилади.

Телефон рақами \*

Кодни СМС олиш

Кейинги



K\*\*\*\*\*<XXXX>30101800050014#4

ПИН ФЛ (14 цифра)

"Кейинги" тұғасыннан босғандан кейін шахсий маълумотларнинг автоматтартырылғанда оның мәнін азайтады. Агар бирор-бир тоғызылық анықланса, исталған давлат хизметтерінде оның мәнін азайтады.

**Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı.** O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı (keyingi o‘rinlarda Yagona portal deb ataladi) internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining hukumat portalı doirasida, shu jumladan, “bir darcha” tamoyilida faoliyat ko‘rsatadi.

Yagona portal orqali interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 sentyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı orqali elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 728-sonli qarorida keltirilgan O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı to‘g‘risida nizomiga muvofiq ro‘yxatdan o‘tish va avtorizatsiya qilish jarayonlaridan o‘tgan foydalanuvchilar uchun amalga oshiriladi.



### Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, давлат органлари, турли ташкilotlarda elektron hujjat almashinushi hamda jismoniy va yuridik shaxslarga masofaviy xizmat ko‘rsatish учун elektron tijorat tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Bugungi kunda mazkur markazlar томонидан bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha ariza berish, fuqaroni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga qo‘yish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish, loyiha hujjatlarini kelishish, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishga, yakka tartibda uy-joy qurishga (rekonstruksiya qilishga) ruxsat berish, suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste’mol qilish учун ruxsat berish kabi xizmatlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan. Prezidentimiz markazlar orqali ko‘rsatiladigan давлат xizmatlari turini yanada ko‘paytirish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

Davlat xizmatlarining har bir turi "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyiliga ko'ra, vakolatli davlat organlari, tashkilotlar zarur hujjatlar va axborotlarni boshqa tuzilmalardan mustaqil ravishda olishi hisobiga soddalashtirildi.

Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, uning qoshidagi Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot loyihalarini boshqarish markazi hamda "Raqamli ishonch" raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

2020-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida elektron hukumat tizimini rivojlantirish konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqilgan. Uning strategik maqsadi – elektron hukumat tizimining keyingi bosqichiga o'tish, integratsiyalashgan hukumatni rivojlantirishga ko'maklashish.

Bunda asosiy e'tibor davlat organlarining axborot tizimlari, axborot resurslari va ma'lumotlar bazalarini joriy etish hamda rivojlantirishda yagona texnologik yondashuvni amalga oshirish, ma'lumotlarni markazlashgan holda saqlash, ishlov berish va almashish tamoyilini ta'minlash, "Elektron hukumat" tizimi ishtirokchilarining o'zaro kelishilgan, bir-birini to'ldiruvchi va birlashtirilgan usullari va yondashuvlarini qo'llashga qaratilgan.

Hozirda yagona interaktiv davlat xizmatlari portalda aholining iqtisodiy va ijtimoiy hayotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish hamda joriy etish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan.



**my.gov.uz** yagona interaktiv portalning asosiy qulayligi – foydalanuvchi uchun moslashuvchan dizaynga ega bo'lgan interfeys hisoblanadi. Portaldan foydalanishda kompyuter talab etilmaydi, mobil telefon yoki planshet orqali ham bir marta ro'yxatdan o'tib, tizimdan hech qanday qiyinchiliksiz foydalanish mumkin. Portal keng ko'lamdag'i davlat xizmatlaridan foydalanish, zarur ma'lumotlarni qidirish, biznes masalalarini tezda hal qilish va boshqa ko'plab imkoniyatlarni yaratilgan.

Shuningdek, **my.gov.uz** yagona interaktiv portalda foydalanuvchidan barcha davlat xizmatlari turi bilan tanishish uchun yagona identifikatsiya tizimidan ro'yxatdan o'tish talab etilmaydi.

### **Yagona portal maqsad va vazifalari:**

Yagona portal davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan, shu jumladan pulli asosda ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan erkin foydalanishning yagona nuqtasi hisoblanadi.


Yagona portalning asosiy vazifalari;

- foydalanuvchilarga davlat organlariga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish uchun imkoniyat berish;

- foydalanuvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi boshqa loyihalar bilan integratsiyalash;

- foydalanuvchilarning davlat organlari bilan o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirish;

- davlat organlariga murojaat qilinganda foydalanuvchilar uchun byurokratik to'siqlarni qisqartirish va ularni bartaraf etish.



2.9.-rasm. my.gov.uz yagona portal sahifasi ko‘rinishi

Yagona portal zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida interaktiv davlat xizmatlari olishda foydalanuvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun mo‘ljallangan.

Yagona portal foydalanuvchilarga davlat organlari tomonidan ko‘rsatiladigan bir tomonlama, ikki tomonlama va tranzaktsion shakldagi interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

### **Ta’limga oid saytlar**

O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi veb sayti:	<a href="https://minsport.uz/">https://minsport.uz/</a>
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi veb sayti:	<a href="https://edu.uz">https://edu.uz</a>
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti veb sayti:	<a href="https://sportedu.uz">https://sportedu.uz</a>
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti veb sayti:	<a href="http://uzdjtsu.uz/">http://uzdjtsu.uz/</a>
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi sayti	<a href="https://uzedu.uz">https://uzedu.uz</a>

### **2.3. Onlayn tizimlar**

Google Tarjimon (inglizcha: Google Translate) — Google kompaniyasining matn yoki veb-sahifalarni bir necha tilga tarjima qilish uchun mo‘ljallangan vebxizmati. Kompaniya ma’lumotlariga ko‘ra hozirgi kunga kelib Google Tarjimondan foydalanayotganlar soni kuniga 500 million kishiga yetdi. Hozirda Google Tarjimon

108 ta tilni qo'llaydi. 2014-yil dekabr oyida Google Tarjimonga o'zbek tili ham qo'shildi.

SYSTRAN texnologiyasini qo'llovchi Babel Fish va AOL kabi boshqa tarjima xizmatlaridan farqli o'laroq, Google Tarjimon Translate.com kabi o'z dasturiy ta'minotidan foydalanadi. Google Tarjimon o'zi o'rganuvchi mashina tarjimasi algoritmidan foydalanadi.

Google Tarjimon tizimidan foydalanish uchun brauzer adreslar satrida <https://translate.google.com> manzili kiritiladi va Enter tugmasi bosiladi. Natijada quyidagi sahifa hosil bo'ladi.

The screenshot shows the Google Translate homepage. At the top, there are tabs for 'Текст' (Text) and 'Документы' (Documents). Below these, there are language selection boxes for both the source ('РУССКИЙ') and target ('УЗБЕКСКИЙ') languages. The main area displays a text input in Russian: 'В XXI веке нет ни одного человека, который бы не занимался физической культурой и спортом, не участвовал в каких-либо состязаниях, эстафетах, фланшебах. Доказательством всех вышеперечисленных пунктов является то, что интерес к крупнейшим международным соревнованиям, таким как Олимпийские игры, Чемпионаты мира и Европы, Всемирные универсиады неуклонно растет.' To the right, the translated text in Uzbek is shown: 'XXI asrda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanmaydigan, biron bir musobaqada, estafeta musobaqlarida, flesh-moblarda ishtirok etmagan odam yoq. Yuqoridagi fikrlarning isboti shundan iboratki, Olimpiya o'yinlari, Jahon va Evropa championatlari, Juhon universiadalari kabi yirik xalqaro musobaqalarga qiziqish tobora o'sib bormoqda.'

Google Tarjimon butun veb-sahifani tarjima qila oladi. Veb-dizaynerlar uchun kompaniya xodimlari tomonidan saytni barcha ruxsat etilgan tillarga tarjima qilishni tashkil etishga imkon beruvchi skript ishlab chiqilgan.

Google Tarjimon boshqa avtomatik tarjima asboblari singari o'z cheklovlariga ega. Ushbu asbob foydalanuvchiga chet tilidagi matn tarkibining umumiyligini tushunishga yordam beradi. Ammo u ko'p hollarda aniq tarjimalarni taqdim etmaydi. Shuning uchun doimiy ravishda tarjima sifati bo'yicha ishlar olib boriladi, boshqa tillarga tarjimalar yaratiladi.

### O'zbek tili

2014-yil 11-dekabrdan Google Tarjimonga o'zbek tili ham qo'shildi. Buni amalgalashirishda o'zbek tilini bilgan ko'ngillilar yordamidan hamda Shavkat Bo'tayevning o'zbekcha lug'atidan foydalanildi.

O'zbek tili ilk bor qo'shilganda tarjima sifati juda yomonligi kuzatildi. O'zbek tilidan ingliz va boshqa tillarga yoki o'zbek tiliga tarjima qilingan jumlalar tushunarsiz yoki mutlaqo boshqa ma'no kasb etdi. Hozirda ushbu muammolar bartaraf qilingan.



**Ovozli ma'lumotlarni matnga onlayn almashtirish xizmati.** Hozirda aksariat foydalanuvchilar matnli axborotlarni kompyuter yoki mobil qurilmalarda uzoq vaqt davomida yozishni hohlamaydilar. Shuning uchun bugungi kunda ovozli nutqni turli tillarda raqamlashtirishni internetda bir qancha onlayn xizmatlari mavjud.

Bunday onlayn xizmatlar ovozni mikrofon yordamida yoki yozib olingan audio va videodagi ovozli axborotlarni matn holatiga o'tkazish hamda ixtiyoriy tilga tarjima qilish imkonini beradi. Hozirda ovozli matn kiritish Windows, Mac OS, Linux operatsion tizimining Google Chrome brauzeri va android foydalanuvchilari uchun maxsus Android, iOS ilovalari ishlab chiqilgan. Albatta bunda sifatli tashqi mikrofondan foydalanish tavsiya etiladi.

### Ovozli bloknot ilovasi.

Ovozli bloknot ilovasidan foydalanish uchun brauzerning manzil maydonchasiga <https://speechpad.ru/> adres sahifasiga yozish orqali nutq kiritish xizmati sahifasiga o'tish kerak. Xizmatdan to'liq foydalanish uchun ro'yhatdan o'tish lozim (2.10-rasm).



2.10-rasm. Ovozli bloknot xizmat ilovasi

### QR-kod va undan foydalanish

**QR-kod** (Quick Response Code) – inglizcha “**Quick Response**” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “tezkor javob” ma’nosini beradi. Ushbu tizim 1994 yilda Yaponiyaning **Denso-Wave** kompaniyasi tomonidan yaratilgan.

**QR-kod** maxsus tarzda kodlangan qandaydir bir ma'lumot, kvadrat ko‘rinishidagi tasvir. **QR-kod** orqali belgilardan iborat axborotlarni kodlash mumkin. Bunday axborotlar sifatida sayt manzili, elektron tashrifnomma (vizitka), telefon, elektron pochta manzili, biror ob’ektning joylashgan koordinatalari va shu kabi ma'lumotlar ishlatalishi mumkin. Bitta QR-kod 7089 ta raqam yoki 4296 ta harf (A4 formatidagi 1-2 sahifa), 1817 iyeroglyph<sup>4</sup> ni o‘z ichiga olishi mumkin.



2.13-rasm. Tashrifnomada (vizitka) QR-kod

<sup>4</sup> IYEROGLIF (yun. hieros - muqaddas va qluphe - o‘yiq) - bir so‘z, bo‘g‘in yoki tovushni ifodalashga xizmat qiluvchi ifoda.

QR kod sizga quyidagi ma'lumotlarni tezda kodlash va o'qish (dekodlash) imkonini beradi:

- matnlar;
- turli saytlarning URL manzillari;
- ma'lumotni yuklab olish uchun faol havolalar;
- internet havolasi bo'yicha tezkor o'tish;
- elektron xat yoki SMS yuborish;
- manzilning joylashuvini aniqlash;
- Wi-Fi (internet) routeriga avtomatik tarzda ulanish mumkin;
- reklama va boshqalar.

Shuningdek, QR kod tizim turli savdo jarayonlarda ommalashdi, ya'ni mahsulot yorlig'ida, kommunal xizmatlar kvitansiyasida yoki veb-sayt sahifalarida topish mumkin.

QR kod yordamida odatdagi shtrix-kodga qaraganda ancha katta hajmdagi ma'lumotlarni kodlash mumkin. O'rnatilgan kodni foydalanuvchining shaxsiy qurilmalari (smartfon, planshet) dekodlash uchun ishlatilishi mumkin, bu faqat bitta qurilmada bo'lgan sinfda ishlashni sezilarli darajada osonlashtiradi.

Bu kodning bosh afzalligi shundaki, u skanerlovchi uskuna (mobil telefon, fotoapparat yoki qo'l skaneri) yordamida oson va tez o'qish hamda kodlash imkonini beradi (2.14-rasm).



2.14-rasm. Mobil telefonda QR-kod skanerlash

QR kod qo'llanishining asosiy tamoyili shundaki, u giperhavola tarzida ishlay oladi. Bu birdaniga ko'p ma'lumot haqida xabar berish zarur bo'lgan holatlarda yoki uni soddalashtirish kerak bo'lganda juda qulay vosita sanaladi. QR kod elektron ma'lumotlar uzatish tamoyiliga asoslanadi. Bu, ayniqsa, ko'p miqdordagi axborotni uzatish yoki undan foydalanishni soddalashtirishda qo'l keladi. QR kod surati mahsulot yoki xizmatni tanlash jarayonini yengillashtirishga yordam beradi, axir qadoq yoki reklama plakatidagi mana shu kichik kvadratchada 4296 tagacha belgi sig`diriladi. U aloqa jarayonini optimallashtirishga ham xizmat qiladi, masalan, aksariyat holatlarda tashrif qog`ozidagi nishonchada birgina tugmani bosish bilan kontaktlaringiz ro'yxatiga qo'shiladigan telefon raqami shifrlangan bo'ladi. Shu bilan birgalikda, QR kodlar yordamida havoladan o'tish, elektron xat, SMS yuborish, manzil joylashuvini bilish va boshqa ko'plab amallarni bajarish mumkin.

QR-kodni yaratish uchun kerakli axborot o'lchami aniqlangan holda tayyorlab olinadi va maxsus generator dasturidan foydalaniladi. Masalan, ***qrcoder.ru*** saytida onlayn tarzda yoki ***QR-Code Studio*** dasturini <https://www.tec-it.com/> saytidan kompyuterga yuklab, ishga tushirish orqali ***QR-Coden*** yaratish mumkin.

Shuningdek, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida "QR-online" – Uzcard va HUMO to'lov terminal tizimlarida to'lov va pul o'tkazmalarida (QR-to'lovlari) amalga oshirilmoqda. Ushbu onlayn imkoniyat O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish orqali shaxsga naqd pul yoki bank kartalarini olib yurmaslik imkonini beradi. To'lov uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar to'lov ilovasi ichida mavjuddir.

### Nazorat savollari

1. Internet tarmog'i nima?
2. Internet so'zi qanday ma'noni anglatadi?
3. Domenlar necha turga bo'linadi?
4. Elektron pochta nima?
5. Ijtimoiy tarmoqlar nima uchun xizmat qiladi?
6. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
7. Onlayn tarjima vositalari nima?
8. Axborotlarni himoya qiluvchi qanday dasturlarni bilasiz?

### 3-mavzu. Ziyonet ta'lim portali

#### Reja:

- 3.1. Kasbiy faoliyatga doir ma'lumotlarni qidirish
- 3.2. Ziyonet ta'lim portali (fikr.uz, utube.uz, audio.ziyonet.uz, library.ziyonet.uz)

#### 3.1. Kasbiy faoliyatga doir ma'lumotlarni qidirish

**Qidiruv tizim** — mavjud bo'lgan ma'lumotlarning keng to'plamida qidirish orqali foydalanuvchiga kerakli ma'lumotni tezda olish imkoniyatini beruvchi algoritmlar va ularni amalga oshiradigan kompyuter dasturlari to'plami. Qidiruv tizimlarning eng mashhur usullaridan biri bu WWWda matnli yoki grafik ma'lumotlarni topish uchun veb-xizmatlar. Shuningdek, FTP-serverlardagi fayllarni, Internet-do'konlarda mahsulotlarni va yangiliklar guruhlarida ma'lumot qidiradigan tizimlar mavjud.

Qidiruv tizimidan foydalanib ma'lumot qidirish uchun foydalanuvchi qidiruv so'rovini shakllantiradi. Qidiruv tizimning vazifasi — ko'rsatilgan kalit so'zlarni yoki kalit so'zlar bilan qandaydir bog'liq bo'lgan so'zlarni o'z ichiga olgan hujatlarni topishdir. Bunda qidiruv tizimi qidiruv natijalari sahifasini yaratadi. Bunday qidiruv natijalari turli xil natijalarni o'z ichiga olishi mumkin, masalan: veb-sahifalar, rasmlar, audio fayllar. Ba'zi qidiruv tizimlari, shuningdek, Internetdagи mos ma'lumotlar bazalari va manbalar kataloglaridan ma'lumot olishadi. Kerakli ma'lumotni topish uchun sizga kerakli ma'lumotlarni tezda topishga imkon beradigan va

qidirishingizning aniqligi va to‘liqligini ta’minlaydigan zamonaviy qidiruv tizimlaridan foydalanish eng qulaydir. Ushbu mashinalar bilan ishslashda kerakli ma’lumotlarni eng aniq aks ettiradigan kalit so‘zlarni o‘rnatish yoki qidiruv maydonini takomillashtirish uchun kalit so‘zlardan murakkabroq so‘rov tuzish kifoya. Qidiruv so‘rovingizni kiritgandan so‘ng, siz Internetdagи hujjatlarga havolalar ro‘yxatini olasiz, odatda veb-sahifalar yoki shunchaki ko‘rsatilgan kalit so‘zlarni o‘z ichiga olgan sahifalar deb nomlanadi. Odatda, havolalar topilgan hujjatning matn qismlari bilan to‘ldiriladi, bu ko‘pincha topilgan sahifaning mavzusini darhol aniqlashga yordam beradi. Havolani bosish orqali siz tanlangan hujjatga o‘tishingiz mumkin. Hozirgi kunda eng ko‘p foydalaniladigan qidiruv tizimlari quyidagilar:

- Google
- Bing
- Yandex
- Yahoo
- Boardreader
- Dogpile
- Creative Commons Search
- Giphy
- Quora
- Vimeo
- WolframAlpha
- StartPage
- Ask.com
- SlideShare

Internet tarmog‘i shunday bir muhitki u o‘zida turli ko‘rinishdagi va turli tillardagi ko‘plab axborotlarni jamlagan. Internet tarmog‘ida har bir foydalanuvchi axborotni qidirish uchun o‘zbek, rus, ingliz yoki boshqa tillardagi bir yoki bir necha so‘zdan tashkil topgan so‘rovlardan foydalanadi. Internet tarmog‘ida ma’lumotlarni uning sarlavhasi yoki uning tarkibida ishtirok etgan so‘zlar va jumlalar bo‘yicha qidirib topish mumkin. Bunda foydalanuvchi tomonidan Internet qidiruv tizimi qidiruv maydoniga kerakli ma’lumotga doir so‘z yoki jumla kiritiladi va qidiruv tizimi ishga tushiriladi.



Har bir foydalanuvchiga Internet tarmog‘i orqali o‘ziga kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni oson va tez qidirib topishi uchun axborotning parametrlari bo‘yicha qidirish taklif qilinadi. Ular kuyidagilardan iborat:

- Ma’lumotlarni uning tili bo‘yicha qidiruv;
- Ma’lumotlarni uning turi (matn, rasm, musiqa, video) bo‘yicha qidiruv;
- Ma’lumotlarni uning joylashgan mintaqasi bo‘yicha qidiruv;
- Ma’lumotlarni uning joylashtirilgan sanasi bo‘yicha qidiruv;
- Ma’lumotlarni uning joylashgan Internet zonasi bo‘yicha qidiruv;
- Ma’lumotlarni xavfsiz qidiruv.

Internet tarmog‘ida grafik va matnli ma’lumotlarning ko‘plab turlari uchraydi, ya’ni: matn muharrirlari, elektron jadval ichidagi matnlar, chizma (vektor), foto (rastr), harakatlanuvchi (animatsiya) hamda siqilgan rasmlar. Matn ko‘rinishidagi axborotlarni


qidirishda tili, joylashtirilgan sanasi, kalit so‘z orqali amalga oshiriladi xamda rasm ko‘rinishidagi ma’lumotlar ustida faqatgina uning nomi yoki turi bo‘yicha qidiruv olib borish mumkin. Ko‘pgina internet qidiruv tizimlari grafik yoki tasvir ko‘rinishidagi ma’lumotlarni qidirish uchun alohida bo‘limga ega bo‘lib, bu bo‘lim orqali ixtiyoriy turdagи rasmlarni ularning nomlari bo‘yicha qidiruvni amalga oshirish mumkin. Bunga misol qilib sport yo‘nalishiga oid ma’lumotlarni qidirishni Google tizimidan foydalanib qanday amalga oshirilishini ko‘rib chiqamiz.

Brauzer adreslar qatoriga google.uz (google.ru, google.com) sayt nomini yozamiz va Enter tugmasini bosamiz. Natijada quyidagi sahifa ochiladi.



Ushbu sahifadagi qidiruv maydoniga qidiruv so‘rovini(kalit so‘zlar) kiritamiz va Enter tugmasini bosamiz. Misol uchun basketbol sport turi bo‘yicha ma’lumot

izlamoqchi bo‘lsak u holda quyidagi ko‘rinishdagi qidiruv so‘rovini shakllantiramiz



Qidiruv natijalari quyidagi ko‘rinishda hosil bo‘ladi

Google search results for "basketbol haqida". The results are as follows:

- [Basketbol - Vikipediya](https://uz.wikipedia.org/wiki/Basketbol): Basketbol (ingilzcha: basket; so'zidan olingen bo'lib, basket — savat, 'ball' — to'p) har birida beshtadan o'yinchisi istirok etadigan jamaoviy sport turidir ...
- [Basketbol haqida — U kim, bu nima - QOMUS.INFO](https://qomus.info/basketbol-haqida): Basketbol (ing. basket — savat, ball — to'p) — sport turi, 3,05 m balandddagi savatlari halqaga to'pni qo'lda tashlab o'ynaladigan jamaoviy sport.
- [Basketbol - Vikipediya Yangilanish](https://upwiki.uz/basketbol-haqida): Ushbu maqola sport haqida. Sportda ishlantiladigan to'p uchun qarang **Basketbol** (to'p). Boshqa maqsadlar uchun qarang **Basketbol** (ajralish).

Qidiruv natijalarini har bir sahifada 10 tadan ko'rsatiladi. Qidiruv sozlamalari yordamida har bir sahifada ko'rsatilishi kerak bo'lgan natijalar sonini o'zgartirish mumkin.


Ushbu natijalardan birortasi tanlansa yangi oynada ushbu ma'lumot joylashgan saytning tegishli sahifasi yuklanadi.

Wikipedia article on **Basketbol**. Key sections include:


- Maqola**: Main article content.
- Munozara**: Comparison with other articles.
- İstirok**: History section.
- Tarix**: Timeline section.
- Vikipediyadan qidirish**: Reference section.
- Basketbol**: Main heading.
- 20-maydan 20-dekabrgacha**: A box highlighting the period from May 20 to December 20.
- Eng yuqori boshqaruvchi FIBA tashkilot**: Information about the FIBA.
- Karakteristikalar**: Characteristics.
- Kontakt**: Contact information.
- Jamoasizlari**: Jamoasizlari.
- Aralash Jins**: Gender distribution.

Google qidiruv tizimidan foydalanib alohida ma'lumot turlari bo'yicha ham qidiruvni amalga oshirish mumkin. Buning uchun qidiruv oynasining yuqorida joylashgan ma'lumot turlaridan birini tanlash kerak.

Agar biz misol uchun faqat rasmlarni qidirmoqchi bo'lsak **Картинки** tugmasini bosamiz. Bu holda qidiruv natijasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi



Agar videolarni qidirmoqchi bo'lsak Видео тугмасини bosamiz. Bu holda qidiruv natijasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi



### 3.2. Ziyonet ta'lim portalı (fikr.uz, utube.uz, audio.ziyonet.uz, library.ziyonet.uz)




ZiyoNET ta'lim portalı 2005-yil 28-sentabrdagi PQ-191-sonli “O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida”gi Qaroriga muvofiq tashkil topgan.

ZiyoNET tarmog'ining asosiy maqsadi, respublika yoshlari hamda ta'lim oluvchilari uchun ta'lim olish tizimida keng ko'lamlı axborot-kommunikatsiya xizmatlarini joriy etishdan iborat.

ZiyoNET ta'lim portalı – o'quvchi yoshlar, talabalar, murabbiylar, shuningdek barcha portal foydalanuvchilari uchun kerakli axborotlarni jamlash bilan bir qatorda, ularga axborot texnologiyalari sohasidagi kerakli ma'lumotlarni berish, o'zaro muloqot

qilish va tajriba almashinislari uchun zarur imkoniyatlarni yaratib beradi.

Portalda quyidagi bo‘limlar mavjud: “Saytlar reyestri”, “Xorijiy tillar”, “Audikitoblar”, “Kutubxona”, “Savol-javoblar”, “O‘yinlar”, “Ta’lim muassasalari”, “Abiturient”, “Sport”, “Sayt satellitlar”, “Arboblar” va “Armiya va yoshlar” (3.1-rasm).



3.1-rasm. ZiyoNET ta’lim portalı bosh sahifası

ZiyoNET ta’lim portalida:

- uMail.uz
- Fikr.uz
- WWW.UZ
- uTube.uz
- uSport.uz
- Arboblar.uz
- B-b.uz
- Lang.uz
- Diktant.uz
- Meros.uz
- Tanlov.uz
- Chakchak.uz loyihalari mavjud.

### **ZiyoNET portalining xizmatlaridan foydalanish qoidalari.**

#### *1. Hujjat mazmuni*

1.1. Ushbu qoidalalar ZiyoNET portalidan foydalanish boshlangan vaqtidan kuchga kiradi va belgilanmagan muddatda amal qiladi;

1.2. Qoidalalar doirasida ko‘rsatilayotgan xizmatlarning bepul ekanligini hisobga olgan holda mualliflik huquqlarini himoya qilishni belgilash ularga nisbatan qo‘llanilmaydi.

#### *2. Foydalanuvchilar*

2.1. ZiyoNET portalining foydalanuvchilari quyidagi toifalarga ajratiladi:

- oddiy foydalanuvchilar;
- ID.UZ tizimidan ro‘yxatdan o‘tgan holda avtorizatsiya bo‘lgan foydalanuvchilar.

2.2. ZiyoNET portalining oddiy foydalanuvchilari faqatgina ma'lumotlarni ko'rish imkoniyatiga egalar;

2.3. ID.UZ tizimidan ro'yxatdan o'tgan holda avtorizatsiya bo'lgan foydalanuvchilar quyidagi imkoniyatlarga ega:

2.3.1. O'zi haqidagi ma'lumotlarni to'ldirish, do'stlikni taklif qilish va qabul qilish;

2.3.2. Uchinchi darajali «zn.uz» domenida sayt-satellitlarni yaratish;

2.3.3. O'z qiziqishlariga ko'ra guruhlar yaratish, guruhlarda muloqot olib borish, media materiallar yuklash va boshqalar yuklagan fayllarga izoh qoldirish;

2.3.4. "Savollar va javoblar" bo'limida o'z savollarini berish va boshqa foydalanuvchilar bergen savollarga javob berish;

2.3.5. "O'yinlar" bo'limining foydalanuvchilari reytingida ishtirok etish;

2.3.6. ZiyoNET axborot resurs tarmog'ining turli tanlovlardida qatnashish va h.k.

### *3. Sayt-satellitlar*

3.1. ZiyoNET portalining sayt-satellitlari internet tarmog'idagi saytlar bilan ishslash va ularni boshqarish bilan tanishishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Saytsatellitlarning faoliyati internet tarmog'idagi axborot-ta'limiy resurslar bilan ishslashga o'rgatish hamda o'qituvchilar, o'quvchilar va barcha foydalanuvchilarning ushbu yo'nalishdagi ilm darajasini oshirishga qaratilgan. Sayt-satellitlar, sozlangan va ishslashga tayyorlangan Wordpress (CMS) kontentni boshqarish tizimida yaratiladi. Barcha sayt-satellitlar 3-darajali

«zn.uz» domenida joylashgan;

3.2. Sayt-satellitlar o'zga saytlarni reklama qiluvchi va ommalashtiruvchi axborot maydonchasi hisoblanmaydi;

3.3. Barcha sayt-satellitlarning yangiliklar kiritilishi holati goh-goh tekshirib turiladi;

3.4. Har bir sayt-satellitga oxirgi 3 oy mobaynida kamida 5 ta maqola joylashtirilgan bo'lishi shart;

3.5. Ushbu qoidalarga rioya qilinmagan holda, foydalanuvchining ro'yxatdan o'tish jarayonida ko'rsatib o'tilgan pochta manziliga kelgusi ikki hafta mobaynida yangilik kiritish kerakligi ko'rsatilgan ogohlantirish xati yuboriladi. Ogohlantirish yuborilgandan so'ng ikki hafta o'tgach foydalanuvchi saytiga yangi ma'lumot kiritmasa, sayt ma'muriyati saytni yopib qo'yish, keyinchalik esa saytni o'chirish huquqiga ega;

3.6. ZiyoNET portalining ma'muriyati sayt-satellitlarning ishslash jarayonida texnik nosozliklar yuz bergenida dasturiy ta'minotga oid texnik yordam ko'rsatadilar;

3.7. ZiyoNET portalining ma'muriyati sayt ishlab chiqarish, uni to'ldirish va rivojlantirish ishlarini amalga oshirmaydi.

ZyoNET portalining qonun-qoidalarini va ularning bajarilishini muhokama qilish, sayt ma'muriyati va moderatorlar faoliyatiga qaratilgan ochiqdan-ochiq namoyishkorona e'tiroz bildirish.

#### 4. ZyoNET portali va sayt-satellitlarda quydagi ta'qiqlanadi

4.1. Mazmuni va sarlavhasi senzuraga mos kelmaydigan so'zlar ifodalangan maqolalarni yozish va joylashtirish, maqola va izohlar yozish jarayonida qo'pol, jargon aks etgan so'zlarni qo'llash;

4.2. Quyidagi ma'lumotlarni joylashtirish ta'qiqlanadi:

1.1.1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo'lgan;

1.1.2. umuminsoniy axloq va odob normalariga to'g'ri kelmaydigan;

1.1.3. irqiy, milliy va diniy ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi so'zlarni aks ettirgan maqolalar;

1.1.4. erotik xarakterga ega bo'lgan rasm va videolar, va ularga havolalar mavjud bo'lgan maqolalar.

ZyoNET portalining qonun-qoidalarini va ularning bajarilishini muhokama qilish, sayt ma'muriyati va moderatorlar faoliyatiga qaratilgan ochiqdan-ochiq namoyishkorona e'tiroz bildirish.

**Kutubxona.** ZyoNET ta'lif portalining “**Kutubxona**” bo'limida ilmiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, dars ishlanmalari va turli ilmiy ishlar jamlangan (3.2-rasm).

Даражаси	Тип	Тоифа
Маълумот даражаси		
Тип	Тасвир	Номланиши

Даражаси	Тип	Тоифа
Табиий-илмий	29152	
Гуманитар таълим	20851	
Техника ва технологиялар	19819	
Иккисод ва бошқарув	8837	

#### 3.2-rasm. “**Kutubxona**” bo'limi sahifasi

*O'zbekiston arboblari loyihasi.* O'zbekiston va butun Markaziy Osiyoning

rivojlanishiga katta hissa qo'shgan arboblар, xalqimiz tarixida fan va madaniyat sohasida o'chmas iz qoldirgan insonlar behisobdir. Ushbu bo'limda aynan ularning hayoti va ijodi, faoliyati, bizga qoldirgan ma'naviy boyliklari haqida ma'lumot berilgan. O'zbekiston arboblari loyihasida fan va texnika, dinshunos va ma'rifatparvarlar, madaniyat, adabiyot namoyondalari, qahramonlar, ustoz va murabbiylar, davlat arboblari va vatandoshlarimizning erishgan yutuqlari shuhratini olamga tanitgan insonlar haqidagi ma'lumotlar mavjud (3.3-rasm).



### 3.3-rasm. “O'zbekiston arboblari loyihasi” bo'limi sahifasi

**Audiokitoblar.** Audiokitoblar bo'limida ta'lim oluvchilari uchun resurslarni o'qish yoki ko'rish hamda o'zbek, qoraqalpoq, rus va boshqa tillardagi audiokitoblar va audiomateriallar tinglash zahirasini mujassamlashtirgan. Audiokitoblar bugungi tezkor va zamонавиј muhit uchun juda qulay manba hisoblanadi (3.4-rasm).

### 3.4-rasm. “Audiokitoblar” bo'lim sahifasi

**Zyonet ta'lim portali sport ta'lim resurslarini yaratish va joylashtirish.** Zyonet ta'lim portali sport ta'lim resurslarini yaratish va joylashtirish O'zbekistonning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda, yoshlarning ma'naviy, aqliy jihatdan kamol topishiga ko'maklashadigan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tahliliy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-ta'lim hamda boshqa axborotlardan keng ko'lamda foydalanishni ta'minlash;

- faol hayotiy mavqega ega bo‘lgan barkamol shaxsiy voyaga yetkazishga qaratilgan milliy axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish;

- respublika o‘quvchilari va yoshlari uchun masofaviy ta’lim usullarini, boshqa axborot-kommunikatsiya xizmatlarining keng kompleksini ta’lim tizimiga joriy etishda ko‘maklashish;

- yoshlar o‘rtasida sog’lom turmush tarzini targ’ib etish, har xil sport turlarini ommalashtirish.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida ovozli (audio) yoki video ma’lumotlardan keng foydalanish o‘quv mashg‘ulot jarayonini samarali olib borishda ham ko‘pincha bunday ma’lumotlarga murojaat qilamiz. Chunki audio va video uyg‘unlashgan holda yaratilgan materiallarni qo‘llash ya’ni elektron resurslardan foydalanish mashg‘ulotlari tashkiliy sifatini oshiradi.

Interaktiv vositalar axborotni taqdim qilishning turli xil vositalarini - tekst, statik va dinamik grafiklar, video va audio yozuvlarni bir butun majmuaga birlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Multimediatdan foydalanish axborotni o‘zlashtirishning o‘ziga xos hususiyatlarini maksimal darajada hisobga olishga imkon beradi. Shuningdek, kompyuter vositasida axborotlarini yetkazib berishda juda ham muhimdir. Yaratilayotgan ko‘pchilik elektron ta’lim resurslari axborotlarning turli-tuman turlari bilan ishlashga yo‘naltirilgan. Ular fotosur’atlar, tovushli fragmentlar va albatta, animatsiya va video bo‘lishi mumkin.

**“uTube.uz”da jismoniy tarbiya va sportga oid resurslarini joylashtirish.** *uTube.uz – bu ochiq ta’limiy videoportal* -ZiyoNET axborot ta’lim tarmog‘i doirasida tuzilgan. uTube.uz portalida ko‘plab video ma’ruzalar, video darsliklar, turli yo‘nalishlar bo‘yicha seminar hamda intervyular to‘plangan.

Shuningdek, portaldan materiallarni ko‘chirib olish imkoniyati mavjud. Ushbu portalga ma’lumotlarni qo‘shish imkoniyati id.uz tizimidan ro‘yxatdan o‘tgan barcha foydalanuvchilar uchun mavjud.



3.5-rasm. uTube.uz saytning sahifasi

Ushbu sayt quyidagi xizmatlarni taqdim etadi:

- videomateriallarni ko‘rish;
- videomateriallarni joylashtirish;
- videomateriallarni ko‘chirib olish;
- foydalanuvchi videomaterialiga havolani joylashtirish.

uTube.uz saytida ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchi avi, wob, mp4, mpeg, movie, mov, mv va mkv formatli videolarni joylashtirish mumkin.


Shuningdek, yuklangan fayl moderatorlar tomonidan sayt talablariga muvofiqligi bo‘yicha tekshiriladi.

### **“Fikr.uz”da jismoniy tarbiya va sportga oid resurslarini joylashtirish.**

**Maqolalarini fikr.uz saytida chop etish.** Fikr.uz sayti ZiyoNET axborot ta’lim tarmog‘i doirasida tuzilgan bo‘lib, foydalanuvchilar unda mualliflik maqolalarini chop etishlari va boshqa foydalanuvchilar bilan birga muhokama qiladilar. Maqolalar mavzu va mazmun jihatidan ta’lim, fan, madaniyat, sport, yuqori texnologiyalar va biznesga bag‘ishlangan bo‘lishi kerak. Fikr.uz saytining tuzilishi undan foydalanuvchi insonlarning ijodiy hamkorlikda saytni kerakli axborot bilan to‘ldirishga yo‘naltirilgan. Sayt foydalanuvchilari maqolalarni shaxsiy va jamoat bloglarida chop etishlari, so‘rovnama o‘tkazishlari hamda o‘zga foydalanuvchilar bilan muloqat o‘rnatishlari mumkin.

**“fikr.uz” ning maqsadi** - foydalanuvchiga IT, ta’lim, madaniyat, sport, ilm-fan va boshqa sohadagi mashhur bo‘lgan shaxslar bilan, hamda bir qator zaruriy-muhim savollarni bajarishda mas’ul bo‘lgan davlat va ijtimoiy tashkilotlar vakillari bilan muomala qilishi uchun sifatli kontentga ega bo‘lgan resurs yaratish.

**Shaxsiy blog** – Fikr.uz saytidan ro‘yxatdan o‘tgach, sayt qonun-qoidalariغا muvofiq tarzda foydalanuvchiga odatiy holda biriktiriluvchi blog. Shaxsiy blog muallifi – **fikr.uz** dan ro‘yxatdan o‘tgach, blogga biriktirilgan foydalanuvchi.



3.6-rasm. *fikr.uz* saytining “jismoniy tarbiya va sport” sahifasi

**Jamoat blogi** – jamoa tomonidan yuritiluvchi blog. Fikr.uz saytidagi barcha jamoat bloglari mavzu asosida yo‘nalishga ega bo‘lib, reytinglarini hisobga olganda “Yaxshi” va “Yomon” ovozga ega bo‘lgan turlarga ajratiladi. «Yaxshi» ovoz – bu blog foydalanuvchilari tomonidan ijobjiy ovozga ega bo‘lgan blog. «Yomon» ovoz – foydala-nuvchilar tomonidan ma’qullanmagan bloglar.

**Jamoaviy blogni** yaratish uchun foydalanuvchi avtorizatsiyadan o‘tgandan so‘ng «**Yozish**» ishoratini bosib topik qo‘shish sahifasida «**Blog yaratish**» tugmasini bosish lozim. Yangi ochilgan sahifada maxsus shaklda quyidagi ma’lumotlarni kiritish kerak:

- blogning nomi;
- blogning URL manzili;

- blogning yo‘nalishi;
- blog haqida qisqa ma’lumot;
- topiklarni blogga e’lon qilish uchun foydalanuvchi reytingiga cheklash o‘rnatish;
- blogning “Avatari”ni o‘rnatish. Kerakli ma’lumotlarni kiritgandan so‘ng «**Saqlash**» tugmasini bosish mumkin.

Jamoaviy blogni Fikr.uz saytidan ro‘yxatdan o‘tgan va  $\geq 2$  reytingiga ega bo‘lgan har bir foydalanuvchi jamoat blogini yaratadi.

**Maqola** – blogdagi xabar. Maqolaning mazmuni u e’lon qilinayotgan blogning yo‘nalishiga mos kelishi kerak. Fikr.uz ning istalgan blogida joylashtirilgan maqolalar reytingdagi mavqeiga ko‘ra “**Yaxshi**” va “**Yomon**” maqolalarga ajratiladi. Barcha bloglarda ajratilgan ballar miqdori mavjud bo‘lib, ularga ko‘ra maqolaning “Yaxshi” yoki “Yomon”ligi belgilanadi. «Yaxshi» maqola – bu foydalanuvchilar tomonidan ma’qullangan maqola. «Yomon» maqola – foydalanuvchilarga mavzu va mazmun jihatdan yoqmagan maqola.


Fikr.uz saytidan ro‘yxatdan o‘tganlar o‘z reyting ko‘rsatkichlariga ko‘ra shaxsiy va jamoat bloglaridagi maqolalarga o‘z izohlarini bildiradilar. Fikr.uz sayti foydalanuvchisining qoldirgan barcha izohlari jamoatchilik tomonidan baholanadi.

Fikr.uz saytidan foydalanishning qulayligini oshirish maqsadida belgilar qo‘llanadi. Saytning bosh sahifasida maqolalarning asosiy mazmunini ochuvchi, ommabop tarzda o‘qilayotgan maqolalarni aks etuvchi maxsus belgilar bilan so‘zlar ajratilgan. Fikr.uz saytida belgilar maqolani tayyorlash va tahrirlash vaqtida qo‘yiladi.


**ZiyoNET portalida ro‘yxatdan o‘tish.** Ro‘yxatdan o‘tish uchun ZiyoNET portalining bosh sahifasidagi Ro‘yxatdan o‘tish tugmasi bosiladi



Natijada quyidagi sahifa ochiladi:



Ushbu sahifadagi maydonlar to‘ldiriladi va **Ro‘yxatdan o‘tish** tugmasi bosiladi



ZiyoNET portalidan ro‘yxatdan o‘tish jarayonida uMail.uz saytida elektron pochta ham yaratiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Qidiruv tizimi nima?
2. Kasbiy faoliyatga oid ma’lumotlarni izlashda qanday qidiruv tizimlaridan foydalaniladi?
3. Google qidiruv tizimining afzalliklarni nimadan iborat?
4. ZiyoNet portali qachon tashkil qilingan?
5. ZiyoNet portali qanday bo‘limlardan tashkil topgan?
6. Sayt-satellit nima?
7. uTube.uz saytiga qanday formatdagi videolarni joylashtirish mumkin?
8. Ziyonet ta’lim portalini maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
9. Ziyonet ta’lim portalini maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
10. Utube.uz vazifasi nima?
11. Fikr.iz saytining vazifasi nima?
12. Usport.uz qanday sayt?

### **Amaliy topshiriqlar:**

1. Ziyonet ta’lim portalidan ro‘yxatidan o‘ting.
2. Fikr.uz blogidan o‘z maqolangizni kiriting.
3. Utube.uz sayitiga shaxsiy “Maktabgacha ta’lim tashkiloti” uchun jismoniy tarbiyaga oid video ni joylashtiring.

V

**SINOV TEST SAVOLLARI****1. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti rasmiy veb saytini aniqlang**

- A) www.sportedu.uz
- B) www.sport.uz
- C) www.markaz.uz
- D) www.trener.uz

**2. O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligi rasmiy veb saytini aniqlang**

- A) www.minsport.uz
- B) www.sport.uz
- C) www.sportedu.uz
- D) www.trener.uz

**3. Axborot texnologiyalari nima?**

- A) Axborotlarni toplash, saqlash, izlash, ishlov berish va tarqatish uchun qo'llaniladigan uslublar, uskunalar, usullar va jarayonlar majmuasidir
- B) Faqat rivojlangan davlatlarda ishlataladigan texnologiyalardir
- C) Butunjahon internet tarmog'i, shuningdek lokal tarmoqlardir
- D) Ko'ngilochar maqsadlarda ishlataladigan texnologiyadir

**4. Odam mushaklarining maksimal quvvati qaysi qurilma yordamida aniqlanadi?**

- A) Veloergometr
- B) Tenzodinamometr
- C) Spidograf
- D) Pulsometr

**5. Yugurish tezligini qayd etish uchun qo'llaniladigan moslama nima?**

- A) Spidograf
- B) Veloergometr
- C) Tenzodinamometr
- D) Pulsometr

**6. Qidiruv tizimlari nima asosida qidiruvni amalga oshiradi?**

- A) Kalit so'zlar
- B) Fayl nomi
- C) Papka nomi
- D) Fayl turi

**7. Qidiruv tizimlari qanday turdag'i ma'lumotlarni topish uchun mo'ljallangan?**

- A) Matn, rasm, video, audioyozuv
- B) Fayllar, papkalar
- C) Animatsiyalar, papkalar, fayllar, rasmlar
- D) Kompyuterlar, fayllar, papkalar

**8. Qaysi javobda qidiruv tizimlari keltirilgan?**

- A) Google, yandex, yahoo, bing
- B) Yandex, word, access
- C) Mail, excel, yahoo, ziyonet
- D) Ziyonet, word, google, gmail

**9. Ziyonet — bu:**

- A) Jamoat axborot ta'lim tarmog'i
- B) Internet-magazin
- C) Internet provayder (kompaniya) nomi
- D) Savdo maydoni

**10. Axborot xavfsizligini buzuvchilarни nechta kategoriyaga ajratish mumkin**

- A) 4 ta
- B) 3 ta
- C) 2 ta
- D) 6 ta

**11. Bugungi kunda aniqlangan Kompyuter tarmoqlariga suqilib kiruvchilarni ko'rsating?**

- A) Xakerlar, krakerlar, kompyuter qaroqchilari
- B) Xakerlar, krakerlar
- C) Xakerlar
- D) kompyuter qaroqchilari

**12. Dinamik parol bu...?**

- A) Bir marta ishlatilganidan so'ng boshqa umuman ishlatilmaydigan parol
- B) Ko'p ishlatildigan parol
- C) Umuman ishlatilmaydigan parol
- D) O'zgaruvchan parol

**13. Microsoft PowerPoint – bu:**

- A) Taqdimot muxarriri
- B) Matn muxarriri
- C) Jadval muxarriri
- D) Grafik muxarrir

**14. Internet ta'lim muassasalari domenini ko'rsating?**

- A) \*.edu
- B) \*.ziyonet
- C) \*.uz
- D) \*.com

**15. ZiyoNET axborot ta'lim tarmog'i doirasida tuzilgan mualliflik maqolalarini chop etish mumkin bo'lgan veb saytini aniqlang**

- A) fikr.uz
- B) ziyonet.uz
- C) sport.ziyonet.uz
- D) library.ziyonet.uz

**16. Ko'p sonli qabul qiluvchilarga tarqatiladigan, keraksiz elektron xabarlar odatda nima deb ataladi?**

- A) Spam

- B) elektron xabarlar
- C) Virus
- D) Reklama

**17. O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali aniqlang.**

- A) www.gov.uz
- B) www.minsport.uz
- C) www.lex.uz
- D) www.edu.uz

**18. Respublikamizda yaratilgan ta’lim muassasalarining ta’lim tarmog‘ini ko‘rsating?**

- A) ziyonet
- B) edu
- C) sportedu
- D) minsport

**19. Elektron pochta nima uchun mo‘ljallangan?**

- A) maxsus dastur bo‘lib, uning yordamida dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron manzilga ma’lumotni jo‘natish va qabul qilish mumkin**
- B) Internetda ma’lumotlarni izlab topish, ko‘rish va qabul qilishni yengillashtiruvchi dastur
  - C) Internetda ma’lumotlarni izlab topish, ko‘rish va qabul qilish uchun
  - D) Web-saxifalar tuzishda ishlataladigan gipermatnga asoslangan dasturlash tili

**20. Kompyuter virusi nima?**

- A) maxsus yozilgan dastur**
- B) ekranda ob’ektlarning ko‘rinishini formasi va o‘lchamlari
  - S) ovozli va videoinformatsiyali ma’lumotli umumlashgan dastur
  - D) tasvirlarni qayta ishlaydigan dastur

**21. Internet xizmati taqdim etuvchi tashkilot qanday nomlanadi?**

- A) Internet provayder**
- B) Server
  - C) Domen
  - D) google

**22. Sayt deganda nimani tushunasiz?**

- A) Internetdagi bitta nomga ega bo‘lgan sahifani**
- B) Web-saxifalar tuzishda ishlataladigan gipermatnga asoslangan dasturlash tili
  - S) Internetda ma’lumotlarni izlab topish, ko‘rish va qabul qilish uchun
  - D) maxsus dastur bo‘lib, uning yordamida dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron manzilga ma’lumotni jo‘natish

**23. Internetda WEB-sahifani ko‘rish uchun qaysi dastur kerak bo‘ladi?**

- A) Brauzer**
- B) Matn muharriri
  - S) Grafik muharriri
  - D) HTMLmuharriri

**24. Brauzer nima?**

- A) Internetda ma’lumotlarni izlab topish, ko‘rish va qabul qilishni yengillashtiruvchi dastur**

- B) elektron pochta xizmatini ko‘rsatuvchi dastur
- C) aloqa xizmati
- D) amaliy dasturlar majmuasi

**25. Internet qaysi tarmoq turiga kiradi?**

- A) Global
- B) Lokal
- C) Mintaqaviy,
- D) Mintaqaviy-global

**26. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi veb-sayti qaysi javobda ko‘rsatilgan?**

- A) uzedu.uz
- B) eduportal.uz
- C) sportedu.uz
- D) edu.uz

**27. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi veb-sayti qaysi javobda ko‘rsatilgan?**

- A) lex.uz
- B) norma.uz
- C) qonun.uz
- D) soliq.uz

**28. Qaysi javobda elektron pochta manzili to‘g‘ri yozilgan?**

- A) info@edu.uz
- B) info.edu.uz
- C) info.edu@uz
- D) @info.edu.uz

**Avtorizatsiya** – foydalanuvchining resursdan foydalanish huquqlari va ruxsatlarini tekshirish jarayoni. Bunda foydalanuvchiga kommunikatsiya tizimida ba’zi ishlarni bajarish uchun muayyan huquqlar beriladi. Avtorizatsiya shaxs harakati doirasini va u foydalanadigan resurslarni belgilaydi.

**Administrator**- Elektron axborot-ta’lim resurslarini moslashtirish va boshkarish uchun keng xukuklarga ega bulgan

**Axborot xavfsizligini ta’minlash** – bu foydalanuvchining axborotlarini himoyalashga qo‘yilgan me’yor va talablarni bajarishdir.

**Axborot xavfsizligi** – bu uzatiluvchi, yig‘iluvchi va saqlanuvchi axborotning xususiyati (holati) bo‘lib, uning tashqi muhit (inson va tabiat)va ichki tahdidlardan himoyalanganlik darajasini xarakterlaydi.

**Axborot tizimi** — boshqarish jarayonini amalga oshirish uchun xodimlarni turli xil axborotlar bilan ta’minlovchi ob’ekt haqidagi axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, uzatish va saqlash bo‘yicha ma’lumotlar va kommunikatsiya tizim.

**Axborot resurslari**—bu tashkilot miqyosida axborotni muhofaza qilish bo‘yicha optimal boshqaruv yechimlari qabul qilinadigan axborot.

**Axborotni muhofaza qilish vositalari**—bu axborotni muhofaza qilish masalalarini hal etish uchun foydalanimuvchi muhandislik-texnik, elektron, optik va boshqa qurilma vositalar to‘plamidir.

**Axborotlashtirish** — yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni.

**Axborot ta’minoti** – tashkilotda aylanib yuruvchi axborotlarni tashkil etish shakli, joylashtirilish hajmi (axborotlarni tasniflash va kodlash-tirish, hujjatlarni unifikatsiyalashtirish tizimi, axborot oqimlarining yagona tizimi) bo‘yicha loyiha qarorlarining shuningdek, ma’lumotlar bazasi tuzilish uslubining majmuasi.

**Brauzer**- Internet bilan ishlashni ta’minlaydigan dastur

**Vebkamera** - kompyuterlararo videotasvirlarni uzatuvchi qurilmadir

**Videoilovalar**- harakatlanuvchi tasvirlar ishlab chiqish texnologiyasi va namoyishi

**Davlat siri**- davlat tomonidan muhofaza qilinuvchi, fosh qilinishi davlatning harbiy-iqtisodiy potensialining sifatli holatiga salbiy ta’sir etuvchi èki uning mudofaa imkoniyati, davlat xavfsizligi, iqtisodiy va sièsiy manfaatlari uchun boshqa og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar.

**Identifikasiya** - jaraèni foydalanuvchini tizimga tanitish jaraèni bo‘lib, unda odatda foydalanuvchi o‘z ismidan (login), smart kartalardan va biometrik xususiyatlaridan foydalanish

**Ish yuritish** – hujjatlashtirishni ta’minlaydigan va rasmiy hujjatlar bilan ishlashni uyushtiradigan faoliyat sohasi.

**Gipermatn-** assotsiativ boglangan bloklar kurnishida takdim etilgan (boskamatnli xujjalarga yul kursatuvchi) matn.

**Gipermatnli tizim-** elektron xujjalalar kutubxonasini yaratishni ta'minlaydigan vosita

**Internet-** yagona standart asosida faoliyat kursatuvchi jahon global kompyuter tarmogi

**Intranet-** internetning kupgina funksional imkoniyatlariga ega bulgan tashkilot yoki ta'lim muassasasining ichki tarmogi

**Kalit-** Qandaydir axborot foydalanish vakolatini tasdiqlash uchun ishlataladigan kod

**Login** – shaxsning, o‘zini axborot kommunikatsiya tizimiga tanishtirish jarayonida qo’llaniladigan belgilarni ketma-ketligi bo‘lib, axborot kommunikatsiya tizimidan foydalanish huquqiga ega bo‘lish uchun foydalaniluvchining maxfiy bo‘lмаган qayd yozuvi hisoblanadi.

**Ma’lumotlar banki-** ma’lumotlarni yigish, saklash, izlash va kayta ishlashni ta’minlaydigan axborot, texnik, dasturiy va tashkiliy vositalar

**Multimedia-** multimedia texnologiyasi yordamida axborot-ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi darslik

**Ochiq axborot-** barcha manfaatdor shaxslarning foydalanishlari bo‘yicha cheklash bo‘lмаган axborot

**Parol** – uning egasi haqiqiyligini aniqlash jarayonida tekshiruv axboroti sifatida ishlataladigan belgilarni ketma-ketligi. U kompyuter bilan muloqot boshlashdan oldin, unga klaviatura yoki identifikatsiya kartasi yordamida kiritiladigan harfli, raqamli yoki harfli-raqamli kod shaklidagi mahfiy so‘zdan iborat.

**Provayder-** kompyuterlarning tarmokka ularish va axborot almashishini tashkil kiladigan tashkilot

**Ro‘yxatdan o‘tish** – foydalanuvchilarni ro‘yxatga olish va ularga dasturlar va ma’lumotlarni ishlatishga huquq berish jarayoni. Ayrim veb-saytlar foydalanuvchilarga qo‘srimcha xizmatlarni olish va pullik xizmatlarga obuna bo‘lish uchun ro‘yxatdan o‘tishni, ya’ni o‘zi haqida ayrim ma’lumotlarni kiritishni (anketa to‘ldirishni) hamda login va parol olishni taklif qiladilar. Foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng tizimda unga qayd yozuvi (akkount) yaratiladi va unda foydalanuvchiga tegishli axborotlar saqlanadi.

**Sayt-** grafika va multimedya elementlari joylashtirilgan gipermediya xujjalari kurnishidagi mantikan butun axborot

**Texnik ta’milot** – axborot tizimlari ishi uchun mo‘ljallangan texnik vositalar kompleksi, shuningdek, ushbu vositalar va texnologik jaraenlarga tegishli hujjatlar.

**Tahdid** – bu mavjud bo‘lgan zaiflik natijasida bo‘lishi mumkin bo‘lgan hujum turi bo‘lib, ular asosan tizimni kamchiliklarini o‘rganish natijasida kelib chiqadi.

**Xavfsizlik siyosati**–xavfsizlik ob’ektlari va sub’ekt-larining berilgan ko‘pligining xavfsizligini ta’minalash protseduralari va mexanizmlarini belgilovchi qoidalar to‘plami.

**Elektron hujjat** - bu har qanday muharrirda yaratilishi va o‘qilishi mumkin bo‘lgan oddiy doc yoki pdf fayl. Uning maxsus elektron imzo bilan imzolanishi va maxsus tarzda yuborilishi muhim ahamiyatga ega.

**Elektron darslik-** kompyuter texnologiyalariga asoslangan ukitish metodlaridan foydalanishga

**Elektron kutubxona-** elektron axborot-ta'lim resurslari majmuasi

**Elektron raqamli imzo** - elektron matnga ilova qilinadigan kriptografik almashtirishdan iborat bo'lib, shu elektron matn jo'natilgan shaxsga qabul qilingan elektron matnning va matinni raqamli imzolovchining haqiqiy eki nohaqiqiy ekanligini aniqlash imkonini beradi.

**Elektron tijorat** – bu internet texnologiyalaridan foydalanib pul ishlash jarayoni.

**Hujjatlashtirish** – ish yuritishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u boshqaruv faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lган barcha axborotni turli vositalarga qayd etish va rasmiylashtirishning tartibli jarayoni.

**Hujjat** – aynan o'xshatish (identifikasiyalash) imkonini beradigan belgilar (rekvizitlar) bilan moddiy vositaga qayd etilgan axborot.

**Hujjat aylanmasi** – tashkilotda hujjatlarni tuzish yoki olish paytidan boshlab to'jro etish yoki jo'natishgacha bo'lган jarayon.

**Hujjatlar oqimi** – bu hujjatlarning olingan yoki yaratilgan vaqtidan uning ijrosi oxirgacha yetkazilish, jo'natish yoki yig'majildga yuborilishgacha bo'lган jarayoni.

**VII****ADABIYOTLAR RO'YXATI****I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild / Sh.M. Mirziyoyev. -T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. Uchinchi nashri. –T.: “O'zbekiston”, 2022.-440 bet.

**II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta'lif va tarbiya to‘g‘risida”gi O'RQ-595-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta'lif to‘g‘risida”gi O'RQ -637-sonli Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5924-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O'zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2022-yil 22-avgustdagи “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-357- sonli Qarori..
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-may “Maktabgacha va mifikta'lifi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoni.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

1. Mamajonov Q.M., Axborot xavfsizligi//Uslubiy qo‘llanma.-F.: Umid Design, 2023.-65b.
2. Pulatov J., Xudoyberdiyev R.F., Sportda axborot-kommunikasiya texnologiyalari//Uslubiy qo‘llanma–T.: Umid Design, 2022.-56b.
3. Tolametov A.A., Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari //Darslik. -T.: Umid Design, 2021.-192 b
4. Tolametov A.A., Jismoniy tarbiyada zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish // O‘quv qo‘llanma. -T.: Umid Design, 2021.-172b.
5. Tolametov A.A., Mamadjanov N., Sport metrologiyasi//O‘quv qo‘llanma.-T.: Umid Design, 2022. – 252 b.
6. Tolametov A.A., Maxarov T.A., Interaktiv topshiriqlar, testlar, krossvordlar yaratishda “Hot Potatoes” dasturidan foydalanish”//Uslubiy qo‘llanma.-T.: Ilmiy texnika axboroti-press, 2019.-55 b.
7. Tolametov A.A., Maxarov T.A., Microsoft Word dasturida ishlash// O‘quv qo‘llanma. –T.: Umid Design, 2022. – 122 b.
8. Tolametov A.A., Microsoft Excel dasturida ishlash//O‘quv qo‘llanma.–T.: Umid Design, 2022. – 160 b.
9. Tolametov A.A., MS Offise PowerPoint 2010 dasturida ishlash//Uslubiy qo‘llanma.-T.: Umid Design, 2021. – 96 b.
10. Tolametov A.A., Nurmuxamedov A.M., Maxarov T.A., Axborot texnologiyalari// O‘quv qo‘llanma.-T.: O‘zDJTI, 2008 -120 b.
11. Tolametov A.A., Sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari// O‘quv qo‘llanma.–T.: Zamon Poligraf, 2023. – 244 b.
12. Tolametov A.A., Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish// Uslubiy qo‘llanma.–T.: Zamon poligraf, 2023. – 64 b.

### **Elektron ta’lim resurslari**

1. <http://edu.uz>
2. <http://lex.uz>
3. <http://sportedu.uz>
4. <http://uzedu.uz>
5. <http://lib.sportedu.uz>
6. <http://ziyonet.uz>
7. <https://umail.uz>
8. <https://mpe.uz>